

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

**A. Mutalov, D.M. Mutalova**

**KICHIK BIZNES VA  
XUSUSIY TADBIRKORLIKNI  
SOLIQQA TORTISH**

TOSHKENT

5'


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**A. Mutalov,  
D.M. Mutalova**

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY  
TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH**

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi o'quv-metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiglashtiruvchi Kengash tomonidan o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan. 2005-yil 31-dekabr 278-sonli buyrug'i asosida berilgan. 0172-sonli guvohnoma asosida tavsiya etilgan*



**Mutalov A., Mutalova D.M. Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni soliqqa tortish: O'quv qo'llanma. - T.: Iktisodiyet, 2012. -84 b.**

O'quv qo'llanma kichik biznes va xususiy tadbirdorlik mesalalarini o'rganishga bag'ishlangan. Unda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikning mohiyati va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'mi ochib berilgan.

Kichik biznes subyektlari soliqqa tortishning xohlagan tartibini tanlash huquqiga ega ekanliklarini e'tiborga olib, o'quv qo'llanmada soliqqa tortishning turli tartiblari, ya'ni:

- soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibi;
- soliqqa tortishning soddalashdirilgan tartibi;
- xususiy tadbirdor-jismoni shaxslarni soliqqa tortish masalalari alohida-alohida ko'rib chiqigan.

O'quv qo'llanmada o'gitishning ilg'or pedagogik yo'nalishlaridan biri bo'lgan kichik biznes subyektlarini soliqqa tortish amaliyotida uchraydigan muayyan muammolarni hal qilishga o'rgatuvchi faoliyat o'yini (деловая игра) ssenariysi keltrilgan. O'quv qo'llanma iqtisodiy oliy o'quv yurtlarining bakalavrliqiga, magistrlariga, professor-o'qituvchilariga, ilmiy xodimlarga, barcha kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni soliqqa tortish masalalari qiziquvchilarga mo'ljallangan.

**Mas'ul muharrir i.f.d., prof. Sh.R. Holmo'minov**

**Taqrizchilar:** i.f.d., prof. A.S. Jo'rayer

i.f.d., prof. M.I. Alimardonov

**Муталов А., Муталова Д.М. Налогообложение малого бизнеса и частного предпринимательства: Учебное пособие. - Т.: Иктисолиёт, 2012, -84 с.**

В учебном пособии рассматриваются вопросы налогообложения малого бизнеса и частного предпринимательства. В нем раскрывается сущность субъекта малого бизнеса и частного предпринимательства, определены их роль и место в экономике страны.

Учитывая, что право выбора порядка налогообложения оставлено за самими субъектами малого бизнеса, в учебном пособии рассматриваются все виды общеустановленных налогов и более подробно упрощенной системы налогообложения.

В пособии приведен сценарий одного из направлений передовых педагогических технологий обучения - деловой игры, посвященной решению конкретных ситуационных проблем, встречающихся в деятельности субъектов малого бизнеса. Данное учебное пособие предназначено на бакалавров, магистров, профессоров-преподавателей высших экономических учебных заведений и научных работников и всех тех, кто интересуется вопросами налогообложения малого бизнеса и предпринимательства.

**Ответственный редактор д.э.н., проф. Ш.Р. Халмуминов.**

**Рецензенты:** д.э.н., проф. А.С. Джурасев,

д.э.н., проф. М.И. Альмарданов.

**Mutalov A., Mutalova D.M. Taxation of small business and entrepreneurship. Manual. -T.: Iktisodiyet, 2012. -84 p.**

In contemporary stage of economic reforms top priority is given to the development of entrepreneurship and small business in our country.

Introduction of new curriculum to 2005-2006 academic year for preparing specialty students 5230800 «Tax and Taxation» of the new subject «Taxation of small business and entrepreneurship» is the proof for that. The present book is devoted to the problems of small business and entrepreneurship taxation. The book gives definition to the concert of small business subject and entrepreneurship and it considers and analyses to small business and also gives some proposals of their improvement.

Taking into consideration that small business subject has the right to choose the taxation system, the book considers all types of general taxes and two ways of simplified system-single tax payment. The book also tells about new pedagogical technologies and ICT used in teaching the present subject.

**Responsible editor: Sh. R. Halmuminov – professor.**

**Reviewers: A. Jorayev - Professor of Tashkent Financial Institut.**

**M. Alimardonov- Professor of Tashkent State Economical University.**

**ISBN 978-9943-4020- 9-6**

**UDK 336.2(07)**

**BBK 65(07)**

**©-“Иктисолиёт”, 2012**

## KIRISH

Iqtisodiy islohotlarni samarali chuqurlashtirish va kengaytirish natijasida O'zbekiston Respublikasi o'z iqtisodiyotini mo'tadillashtirishga erishdi va 2004- yildan boshlab mamlakatimiz iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanma boshladi.

Xalqaro valyuta fondining e'tirof etishicha, O'zbekiston Respublikasida makroiqtisodiy rivojlanish natijalari yalpi ichki mahsulotning to'xtovsiz o'sishida, mamlakatimiz oltin hamda valyuta zaxiralarining va to'lov qobiliyatining o'sishini ta'minlovchi eksportning yuqori darajada o'sishida yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, yalpi ichki mahsulot 2004 - yilda 7,7 foizga o'sgan bo'lsa, 2008 - yilda 9 foizga o'sdi<sup>1</sup>, hattoki, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham bunday o'sish sur'atlari pasaymadi va 2011 - yilda 2010 - yilga nisbatan 8,3<sup>2</sup> foizni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanirish masalalariga hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida, ayniqsa, katta e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdag'i o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'mini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'r'in egallaydi"<sup>3</sup>, deb ayтиб o'tgan edi.

Yuqoridagi fikrni mamlakatimizda 2011- yilni «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili» deb e'lon qilinishi ham tasdiqlab turibdi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanirish masalalariga bunday katta e'tibor, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uni O'zbekiston iqtisodiyotining muhim va hal qiluvchi bo'g'iniga aylanirishga imkon yaratdi. Natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ustuvor sur'atlari bilan rivojlanishi yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlariiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqilsa, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har taraflama, jumladan soliqqa tortish masalalarini chuqur o'rganish talab etiladi - bu esa ushbu fanni o'qitishning maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun 2005/2006 - o'quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab 5230800 - "Soliqlar va soliqqa tortish" yo'nalishi mutaxassislarini tayyorlash bo'yicha o'quv dasturiga "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fani kiritildi.

Ushbu fanning vazifasi bo'lib kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyatini va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'mini, hamda soliqqa tortishning turli tartibi: soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibi; soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi; xususiy tadbirkor-jismoni shaxslarni soliqqa tortish sharoitlarida 'amal qilishini o'rganadi.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fani "Soliq nazariyasi", "Soliqlar va soliqqa tortish", "Moliya va soliqlar", "Soliqlarning dolzarb muammolari", "Yuridik shaxslarni soliqqa tortish", "Jismoni shaxslarni soliqqa tortish", "Davlat soliqlari va yig'imlari", "Mahalliy soliqlar va yig'imlar", "Soliq huquqi", "Soliq maslahati", "Moliya", "Korxonalar moliyasi" kabi bir qator fanlar bilan o'zaro hamkorlikda o'rganiladi. Fanni o'rganishda o'qitishning ilg'or pedagogik texnologiyalaridan keng foydalilanadi.

<sup>1</sup>Karimov I. A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009. 15 - b.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012- yilgi usosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari yo'g'risida"gi Qarori.

<sup>3</sup> Karimov I. A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'llini izchil davom ettilish -tarraqqiyotimizning muhim omilidir - T.: O'zbekiston, 2009. -46 b.

## I bob. «KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI

*Kalit so 'zlar: kichik biznes, kichik biznes subyekti, predmet, obyekt, soliq, soliqqa tortish, fan.*

### 1.1. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanining predmeti va vazifalari

Ma'lumki, har bir fanning o'z predmeti, ya'ni o'zining o'rganish obyekti bo'ladi. Masalan, “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti bo'lib, soliqlar va ularga tenglashtirilgan majburiy to'lovlarining iqtisodiy mohiyatini, ularning davlat budjeti daromadlarini shakllantirishdagi rolini, O'zbekiston Respublikasining mustaqil soliq siyosati va soliq tizimini, soliq turlari bo'yicha imtiyozlarni hamda soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash mexanizmini o'rganish xizmat qiladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanining predmeti xuddi “Soliqlar va soliqqa tortish” fanining predmeti kabi bo'lib, faqat kichik biznes va xususiy tadbirkorlik misolidadir.

Soliq mexanizmi deganda, soliq tizimini soliq amaliyotiga tatbiq etish tushuniladi. Soliq mexanizmi o'z ichiga pul muomalalari yoki soliq amaliyotini o'rganishni oladi va soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan soliqlarni tashkil etuvchi barcha soliq elementlari yig'indisini o'rganishga xizmat qiladi. Bu yerda pul muomalalari soliq to'lovchilar, ya'ni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hamda davlat (soliq yig'uvchilar) o'rtaida amalga oshiriladi.

Ushbu fanning zarurligi pul muomalalarini to'g'ri tashkil etishni o'rganishdan iborat bo'lib, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida uning roli yanada ortadi.

To'g'ri tashkil etish deganda soliq muomalalari qatnashchilarining har birining iqtisodiy manfaatdorligini hisobga olib tashkil etish, ya'ni tomonlar orasida to'g'ri proporsiyalarni o'matish tushuniladi.

Bu proporsiyani davlat foydasiga buzish - soliq yukining haddan tashqari oshib ketishiga, soliq to'lovchilarning o'z korxonalarini rivojlantirishga bo'lgan imkoniyat va qiziqishlarini pasaytirishga va pirovard natijada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini bankrotlikka olib borishi mumkin.

O'z navbatida, soliq yukini haddan tashqari pasaytirib yuborish – soliq tushumlarining budjetga tushishi lozim bo'lgan miqdorda tushmay qolishiga va natijada davlat o'z funksiyalarini bajarishi uchun lozim bo'lgan pul mablag'lari bilan yetarli darajada ta'minlanmay qolishiga olib keladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanining asosiy vazifasi - soliq organlari va soliq bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi boshqa organlarning xodimlari va soliq to'lovchi - kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini soliq sohasidagi zaruriy nazariy, uslubiy va amaliy bilimlar bilan qurollantirishdan, shuningdek, xorij mamlakatlarining soliq sohasidagi ilg'or tajribalarini o'rganish asosida chiqarilgan xulosalarni respublikamiz soliq amaliyotiga tatbiq etishdan iboratdir.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanini chuqur o’rganish amalda soliq tushumlarini tushirish rejalarini muvaffaqiyatli bajarilishiga olib keladi.

### **1.2. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanini o’rganishning zarurligi va boshqa fanlar bilan munosabati**

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fani doimiy takrorlanib turadigan soliq harakatlarni, mexanizmini va soliq munosabatlarni har taraflama chuqur o’rganish asosida soliq munosabatlarni tartibga solish yo’llarini o’rgatadi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fani soliq amaliyotidagi eng to’g’ri, eng takomillashgan va ilg’or voqeliklarni o’rganish asosida soliqchilarga va soliq to’lovchilarga kelajaklari uchun ish dasturi sifatida taqdim etiladi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fani nazariy jihatdan soliq amaliyoti uchun zarur kompas, barometr, yo’l boshlovchi vazifasini bajaradi.

Shuning uchun bu fanni yaxshi bilgan soliq amaliyotchisi hech qachon yo’ldan adashmaydi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fani “Iqtisodiy nazariya”, “Soliq nazariyasi” fanlari bilan chambarchas bog’liqdir va ularning maxsus, chuqurlashtirilgan va kengaytirilgan bo’limidir, chunki “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanining qonuniyatlarini umumiqtisodiy nazariya qonuniyatlaridan chetga chiqib keta olmaydi va ularga asoslanadi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fani, shuningdek, moliya fani bilan ham bog’liqdir, chunki soliqlar moliya munosabatlari tarkibiga kiradi. Moliya ham soliqlar ham pul munosabatlarni ifodalaydi, ya’ni ularning ikkalasi uchun yagona asos-pul munosabatlarining mavjudligidir, ammo soliqlar o’ziga xos bo’lgan pul munosabatlarni, ya’ni soliq to’lovchilar bilan davlat o’rtasidagi majburiy pul munosabatlarni ifodalaydi.

Ushbu fan “Soliq nazariyasi”, “Soliqlar va soliqqa tortish”, “Yuridik shaxslarni soliqqa torish”, “Jismoniy shaxslarni soliqqa tortish”, “Davlat soliqlari va yig‘imlari”, “Mahalliy soliqlari va yig‘imlar”, “Chet mamlakatlar soliq tizimi”, “Moliya”, “Davlat budjeti”, “Soliqlarni bashorat qilish” kabi fanlar bilan birgalikda o’rganiladi.

### **1.3. “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish” fanining asosi va manbalari**

Bozor iqtisodiyoti talab va taklif, raqobat, qiymat va boshqa iqtisodiy qonunlar orqali faoliyat yuritadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ishlab chiqarish va pul munosabatlari mavjud, ya’ni bozor iqtisodiyoti, pirovard natijada pulli munosabatlari iqtisodiyotidir.

Davlat ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish va uni taqsimlashning qonun-qoidalarini ishlab chiqadi. Bu taqsimlashdagi munosabat bozor iqtisodiyoti sharoitida pul orqali amalga oshirilganligidan, davlat uni boshqarishni ham pul munosabatlari orqali, ya’ni pul va kredit orqali boshqarishni amalga oshiradi.

Bozor iqtisodiyoti qonunlarini o'rganib chiqib, davlat ijtimoiy mahsulot, yalpi ichki mahsulot qiymatini soliq orqali taqsimlash vazifasini o'z zimmasiga oladi.

Shunday ekan davlat mamlakat iqtisodiyotini boshqarishda katta rol o'yaydi.

Bu esa o'z navbatida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining asosi bo'lib xizmat qiladi.

Davlat soliq munosabatlarini tashkil qilib, bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda yetakchilik, boshqaruvchilik rolini bajaradi, shuningdek, davlat soliqlarning mohiyati va vazifalarini mukammal o'rganib chiqib, uni amaliyotga tatbiq etishni ham o'z zimmasiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti, uning talab va taklif, raqobat va qiymat kabi iqtisodiy qonunlari "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining asosiy negizidir.

Davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulotni qayta taqsimlaydi va soliqlardan taqsimlash kategoriyasi sifatida o'zining hamma ijtimoiy talablarini qondirishda foydalana oladi.

#### **1.4."Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining soliq sohasidagi mutaxassislarini tayyorlashda tutgan o'rni**

Soliq xizmati xodimlari qonunchilik hujjatlarida o'zlariga yuklatilgan vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun faqat nazariy jihatlarinigina bilib qolmasdan, balki ulardagagi soliqlarning mohiyati va zarurligi, ular uchun umumiylasosga ega bo'lgan soliq tamoyili, soliqqa tortish tizimi, soliq tizimi va shart-sharoitlarini puxta egallagan bo'lishlari zarur.

Buning uchun yuqorida keltirilgan barcha masalalarni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari misolida o'rganuvchi "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanini chuqr o'rganish lozim.

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fani pul munosabatlarini ifodalovchi soliqlarning kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari sharoitida quyidagi masalalarni:

- soliqlarning mohiyati va mazmuni;
- soliqlarni tashkil qilish asoslari;
- soliqlarning bozor iqtisodiyoti sharoitida zarurligi;
- soliqlarning umumbelgilangan va soddalashtirilgan tizimlaridagi turlari;
- soliqlarning budgetga tushish nuqtai nazaridan umum davlat va mahalliy soliqlarga bo'linishi;
- soliq stavkalari va ularning turlari, ularni amaliyotga tatbiq etish usullari va uslubiyoti;
- soliq tizimiga oid boshqa harakatlar hamda soliqlarning qisqacha rivojlanish tarixini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Fanning mohiyati va mazmunini chuqr egallagan har qanday mutaxassis soliqlarni o'rganishda va ularni kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining soliq amaliyotiga o'z vaqtida to'g'ri va to'liq tatbiq etishda unumli foydalanadi. Shuningdek, "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fani soliq xizmati xodimlari, soliq sohasi vakillari, kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari

xodimlari, ilmiy tadqiqotchilar, talabalar va boshqa barcha qiziquvchilar ilmiy salohiyatlarini oshirishda katta rol o'ynaydi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: Adolat, 2010- y. - 400 b.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 24 - avgustdagি 4364-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 7 - fevraldagi 1474 - sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 30 – dekabrdagi 1675 - sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'satkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

5. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012 - yil 20-yanvar.

6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009, -55 b.

7. Муталов А., Муталова Д. Налогообложение малого бизнеса и предпринимательства. – Т.: Иктисадиёт, 2010.-112 с.

### **WEB saytlar:**

1. <http://www.soliq.uz>. - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.

2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti.

3. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.

4. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

## II bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATI VA SOLIQ TIZIMI

*Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, siyosat, strategiya, taktika, soliq tizimi, soliq elementi, soliq mexanizmi, imtiyoz.*

### 2.1. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati

Soliq siyosati - bu davlatning iqtisodiyotda mo'tadillik va rivojlanishga erishishga qaratilgan soliqlar va soliqqa tortish sohasidagi chora-tadbirlari yig'indisidir. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishib, o'zining mustaqil soliq siyosatiga ega bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining asosiy tamoyilliari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan va uning asarlarida o'z ifodasini topgan. "Soliq siyosatining vazifasi bir tarafdan davlat budgetining daromadlarini mo'tadil shakllantirishni ta'minlashdan, ikkinchidan, korxonalarini respublika uchun zarur bo'lgan mahsulotni ishlab chiqarishni ko'paytirishga rag'batlantirishdan iborat"<sup>4</sup>, - deb ta'kidlagan edi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatini ishlab chiqishda iqtisodning siyosatdan ustuvorligi tamoyili asos qilib olingen edi.

Soliq siyosatini amalga oshirishda quyidagilarga ahamiyat berish lozim:

- soliq to'lovchilarning mulkiy ahvoli va oladigan daromadlarini hisobga oluvchi soliqqa tortishning umumbelgilangan va soddalashtirilgan tizimlaridan aniq sharoit talablaridan kelib chiqib samarali foydalanishga;

- soliqqa tortish amaliyotini takomillashtirishda barcha soliq to'lovchilarga bir xil talablar qo'yishni ta'minlash maqsadida soliqlarni universallashtirish lozimligini hisobga olishga;

- faqat bir marta soliqqa tortish talablaridan kelib chiqib mulkchilik shaklidan qat'i nazar xo'jalik yuritishning tashkiliy-huquqiy me'yorlarini hisobga olishga;

- soliq stavkalarini belgilash va ularni daromad olish darajasiga qarab differensiatsiyalashda, soliq imtiyozlarini mo'tadillashtirish tizimlarini ishlab chiqishga ilmiy yondashishga.

Amaldagi soliq siyosati oldiga soliqqa tortishni soddalashtirish (ayniqsa, kichik biznes subyektlari uchun) vazifasi qo'yilgan.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq tizimini takomillashtirishning asosini soliq yukini soliqlar tarkibini takomillashtirish va soliqlarning rag'batlantiruvchi rolini oshirish hisobiga keskin pasaytirish tashkil etishi lozim.

Soliq siyosatini amaliyotga tatbiq etishda alohida e'tibor iste'mol bozorini mo'tadillashtirishni amalga oshirish bo'yicha faoliyat ustidan nazorat o'rnatishga, tovarlar kriminal aylanmasiga yo'l qo'ymaslik maqsadida ularni ishlab chiqarishdan to sotilgunigacha nazorat qilish, soliq qonunchiligining buzilishiga yo'l qo'ymaslikka qaratilishi lozim.

<sup>4</sup> Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. -T.: O'zbekiston, 1998, -330 b.

O'zbekiston Respublikasida soliq siyosati Soliq kodeksidan va soliqlar sohasida munosabatlarni boshqaruvchi boshqa qonunlar va qonunchilik hujjatlaridan kelib chiqib amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi soliq-budget siyosati hozirgi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida dolzarblik darajasi oshib borayotgan soliq yukining iqtisodiyotga bosimini kamaytirishni, soliq ma'muriyatchiligi tizimini takomillashtirishni, iqtisodiy asoslanmagan va samarasiz soliq imtiyozlarini bekor qilishni, soliq to'lovchilarning soliq majburiyatlarini o'z vaqtida va to'liq bajarishlariga bo'lgan iqtisodiy manfaatdorligini oshirishni ko'zda tutuvchi iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning va mamlakatni iqtisodiy rivojlantirishning dasturiy choralarini ko'zda tutadi.

## **2.2. Soliq siyosatining strategiyasi va taktikasi**

Soliq siyosatining samaradorligini oshirish uchun uning strategiyasi va taktikasini ishlab chiqish lozim.

Soliq siyosatining strategiyasi – bu davlatning soliqlar va soliqqa tortish sohasidagi uzoq muddatlarga mo'ljallangan tadbirlari majmuasidir. Soliq strategiyasi 5, 10, 15 va undan ko'proq muddatlarga mo'ljallangan konsepsiyalar ko'rinishida ishlab chiqiladi. Soliq konsepsiyalari asosida soliq strategiyasi, ya'ni barcha yo'nalishlardagi konsepsiyalarni o'z ichiga oluvchi yagona soliq strategiyasi ishlab chiqiladi va u ko'p yillar davomida o'zgarmaydi.

Soliq siyosatining taktikasi – bu davlatning soliq siyosatining strategiyasini qisqa muddatlar (yil, yil choragi)da amaliyotga kiritish bo'yicha tadbirlari majmuasidir. Odatda bu tadbirlar soliqlar bo'yicha qonunchilik hujjatlarini ishlab chiqish va kerak bo'lganda ularga o'zgartish va qo'shimchalar kiritishdan iborat bo'ladi.

Soliq siyosatining taktikasi mamlakat iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga qarab o'zgarishi mumkin, masalan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida.

Agar O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatiga nazar tashlasak, mustaqillik yillarda soliq siyosati soliq tushumlari tarkibida egri soliqlar ulushining uzuksiz o'sib borishiga qaratilganini ko'rish mumkin. Masalan, 1991 - yilda ularning ulushi hammasi bo'lib 0,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, hozirga kelib ularning ulushi 50 foizga yaqinlashdi.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini faollashtirish uchun quyidagi masalalarga diqqatni qaratish lozim:

- o'tgan davrlardagi xatolarni qaytarmaslik uchun, soliqlar va soliqqa tortish tarixini chuqur o'rganish lozim;
- soliqqa tortish va undirish xarajatlarini uzuksiz ravishda pasaytirib borish;
- soliq to'lovchilar va soliqchilar tomonidan soliqlarni o'z vaqtida va to'g'ri hisoblashlari uchun soliqqa tortish obyekti aniq, sodda, yengil va tushunarli bo'lishi lozim;
- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimiga o'tkazilgan kichik biznes subyektlarining ulushini uzuksiz o'stirib borish;

- uzuksiz ravishda yangi ilg'or soliq tizimlarini ishlab chiqish va soliq amaliyotiga tatbiq etib borish.

O'zbekiston Respublikasining soliq siyosatini uzuksiz takomillashtirish, uzuksiz ravishda yangi ilg'or soliq tizimlarini ishlab chiqish va soliq amaliyotiga tatbiq etib borish - mamlakat iqtisodiyotini mo'tadillashtirishga, xalq farovonligini oshirishiga imkon yaratadi. Bu esa hozirgi jahon moliyaviy inqirozi sharoitida muhim ahamiyat kasb etadi.

### **2.3. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning tarkibi**

Soliq tizimi – bu mamlakatda undirilishi ko'zda tutilgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari, shuningdek, soliqlarni belgilash, o'zgartish, bekor qilish, undirish, to'lash va nazorat qilish tamoyillari, shakllari va usullari yig'indisidir.

Sobiq SSSR hududida fiskal xususiyatga ega bo'lgan yagona tizim amalda edi. Uning elementlari bo'lib asosan aholidan olinadigan soliqlar, mablag' aylanishidan soliqlar va boshqalar xizmat qilar edi.

Mustaqillikka erishilgach, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarishni rag'batlantirishni ko'zda tutadigan soliqlarni shakllantirishni ta'minlovchi yangi mustaqil soliq tizimi tashkil etildi.

Mamlakatimizda yangi soliq tizimining asoslari 1992 - yilgi iqtisodiy islohot tomonidan barpo etilgan edi. Bu islohotning eng muhim natijasi bo'lib, mablag' aylanmasidan soliq va sotuvdan soliq o'rniqa qo'shilgan qiymat solig'ining kiritilishi bo'ldi.

Bu davrda iqtisodiyotni tuzilmaviy qayta qurish hamda ijtimoiy dasturlarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar zaruratini hisobga olib, soliq tizimi davlat tomonidan soliqqa tortish bazasini kengaytirish va anchagini baland soliq stavkalarini qo'llash yo'li bilan zaruriy daromadlarni topishga qaratilgan edi. Ammo shu bilan birga, amaldagi baland soliq stavkalariga nisbatan juda ko'plab samaradorlik darajasi past bo'lgan soliq imtiyozlari berilishi ko'zda tutilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi soliq tizimiga sezilarli o'zgartishlar soliq islohotlarining 1995-1997- yillarni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqichida kiritildi.

Bu davrda amalga kiritilgan soliq tizimi konsepsiyasida yuridik shaxslarga to'g'ri keladigan soliq yukini pasaytirish, soliqlarning rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirish, budget daromadlari tuzilmasini tabiiy resurslardan, mol-mulkdan va jismoni shaxslardan olinadigan soliqlar ulushini oshirish hisobiga takomillashtirish ko'zda tutilgan edi.

Bu konsepsiyanı ilgari qo'llanib kelingan foya solig'i o'rniqa daromadga soliqni kiritish, asosiy soliq turlari bo'yicha soliq stavkalarini pasaytirish, resurs soliqlarining soliqqa tortish bazasini kengaytirish yo'li bilan amalga oshirildi.

Hozir davom etib kelayotgan soliq islohotlarining uchinchi bosqichida 1998 - yilda Soliq kodeksi qabul qilingan bo'lib, unda soliq tizimini tashkil etishning asosiy tamoyillari belgilab berilgan edi.

2008 - yilda yangi Soliq kodeksi amalga kiritilishi natijasida soliq sohasidagi barcha me'yorlarni yagona hujjatga yig'ish, daromadlarni, mol-mulkni, qo'shilgan

qiymatni soliqqa tortish va hisob-kitob qilish tizimini tartibga solish imkoniyati tug‘ildi.

Bu bosqichda O‘zbekiston Respublikasida kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni rag‘batlantiruvchi “soliq iqlimi”ni tashkil qilish maqsadiga iqtisodiy islohotlar jarayonini me’yoriy - huquqiy ta’minlashni takomillashtirishga alohida e’tibor qaratilgan edi. Kichik biznes subyektlari bir nechta umum davlat va mahalliy soliqlar va yig‘imlar hamda davlatning budgetdan tashqari maxsus jamg‘armalari o‘miga faqat bitta – yagona soliq to‘lovini to‘lash imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Hozirgi paytda soliq tizimini takomillashtirish asosiga Prezidentimiz tomonidan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy ta’sirini bartaraf etishga, jamiyat hayotining barcha jabhalarini erkinlashtirishga, iqtisodiy islohotlar yo‘lidan olg‘a yurishga qaratilgan vazifalar qo‘yilgan.

#### **2.4. Soliq elementlari**

Soliqlar deganda, Soliq kodeksi tomonidan belgilab berilgan budgetga aniq miqdorlarda, doimiy ravishda undirib olinadigan, qaytarib va to‘lab berilmaydigan majburiy pul to‘lovlari tushuniladi.

Soliqlardan tashqari Soliq kodeksi tomonidan belgilab berilgan to‘lanishi majburiy bo‘lgan boshqa majburiy to‘lovlari, ya’ni davlatning budgetdan tashqari maqsadli jamg‘armalariga ajratmalar, bojxona to‘lovlari, davlat bojlari va yig‘imlar ham mavjud.

Soliqlar - ijtimoiy mahsulotning ulardan to‘lovchilar hech qanday manfaat olmaydigan davlat foydasiga majburiy ravishda o‘tkaziladigan ijtimoiy mahsulotning bir qismidir.

Qonunchilikda va soliq amaliyotida soliqlardan tashqari “yig‘im” atamasi ham mayuddir. Yig‘imlar - davlat tomonidan uni to‘lovchilarga qatnashish, nimadandir foydalanish, u yoki bu faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lishlari uchun davlat organlariga to‘lanadigan to‘lovnini bildiradi.

Soliqlar va yig‘imlar – majburiy to‘lovlardir. Ularni to‘liq va to‘la to‘lashlariga soliq to‘lovchilar javobgar etib tayinlanganligiga qaramasdan, soliqlar va yig‘imlar ixtiyoriy ravishda emas, balki majburiy ravishda to‘lanadi va davlat ularni to‘lashdan bo‘yin tovlovchilarni qattiq jazolaydi.

Soliqlar orqali ilgaridan qonuniy ravishda belgilab qo‘yilgan miqdorlarda daromad oluvchilar daromadining bir qismi davlat foydasiga undiriladi.

Soliq turlari orasida katta farqlar borligiga qaramasdan, ular asosida ularga xos bo‘lgan bir xil tuzuvchilar, ya’ni elementlar yotadi.

Asosiy soliq elementlari qatoriga quyidagilar kiritilgan:

- soliq subyektlari;
- soliqqa tortish obyekti va soliqqa tortish bazasi;
- soliq stavkasi va soliq imtiyozlari;
- soliq davri va hisobot davri;
- soliq majburiyati va soliq yuki.

Soliq subyektlari – zimmasiga soliqlar va yig‘imlarni to‘lash yuklatilgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Soliqqa tortish obyekti – soliq to'lovchida soliq majburiyati paydo qiladigan mulki va harakatlaridir.

Soliqqa tortish bazasi - qiymatdagi, fizik yoki boshqa xususiyatlarga ega bo'lgan soliqqa tortish obyektingin miqdorini bildiradi.

Soliq stavkasi - soliqqa tortish bazasining bir birligiga to'g'ri keladigan soliq miqdorini bildiradi. Soliq stavkasi soliqqa tortish bazasining bir birligiga nisbatan foizlarda, eng kam ish haqiga nisbatan yoki mutlaq sumrnalarda belgilanadi.

Soliq imtiyozlari – soliq to'lovchilarni soliqlarni to'lashdan to'la yoki qisman ozod etishdir. Soliq imtiyozlari qatoriga chiqarish, chegirma va soliq krediti kiradi:

1. Chiqarish – soliqqa tortishning ayrim obyektlarini soliqqa tortishdan chiqarib tashlashga qaratilgan imtiyozdir.

2. Chegirmalar - soliqqa tortish bazasini qisqartirishga qaratilgan imtiyozdir.

3. Soliq krediti – soliqlarning to'lov muddatlarini kechiktirishga qaratilgan imtiyozdir.

Soliq davri – ayrim soliq turlari va majburiy to'lovlar uchun belgilangan davr bo'lib, bu vaqt tugagach soliqqa tortish bazasi aniqlanadi va budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hisoblab chiqiladi.

Hisobot davri - ayrim soliq turlari va majburiy to'lovlar uchun belgilangan soliq inspeksiyasiga hisobot topshirish davridir.

Soliq majburiyati – soliq qonunchiligiga muvofiq soliq to'lovchining davlat oldidagi majburiyati bo'lib, unga muvofiq soliq to'lovchi soliq inspeksiyasida hisobga turishi, soliqqa tortish obyektni va soliqqa tortish bilan bog'liq bo'lgan obyektlarni aniqlashi, budgetga to'lanishi lozim bo'lgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarishi, hisobotlar tuzishi va belgilangan muddatlarda soliq inspeksiyasiga topshirishi lozim.

Soliq yuki – barcha soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'indisining yalpi milliy daromadga nisbatidir, bitta soliq to'lovchi miqyosida esa to'langan barcha soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yig'indisining yalpi daromadga nisbatidir.

## 2.5. Soliq mexanizmi va soliq imtiyozlari

Soliq mexanizmi tushunchasi soliq turlarini, elementlari va tashkil etish usullarini, soliq qonunchiligini, soliqlarning hisoblanishi va budgetga to'lanishi ustidan davlat nazorati olib borilishini o'z ichiga oladi. Boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizmi soliq tizimini, soliqlarning tashkiliy tizimini, soliq organlarining xizmat tizimini va soliq sohasidagi barcha hujatlarni o'z ichiga oladi.

Soliq mexanizmini takomillashtirishning maqsadi bo'lib soliqlarni har tomonloma mukammal bo'lgan samarali tashkil etish xizmat qiladi.

Soliq mexanizni budget mexanizmi tarkibiga kiradi. Mexanizm atamasi iqtisodiyotga texnikadan kirib kelgan bo'lib, iqtisodiyotda u soliqlarning barcha elementlaridan, ya'ni soliqlarning obyektlaridan, subyektlaridan, stavkalari va manbalaridan, to'lash muddatlaridan, soliq huquqidan va soliq hujatlardan foydalanishni, boshqacha qilib aytganda, soliq mexanizni soliq tizimini amaliyotga tutbiq etishni bildiradi.

Soliq mexanizmni soliqlarning barcha elementlaridan samarali foydalanish maqsadida tanlab olingen tushunchadir. Masalan, soliq mexanizmi tarkibiga kiruvchi soliq stavkalari tez-tez o'zgarib turishi mumkin bo'lsa, soliq turlari ko'p yillar davomida o'zgarmay keladi.

Soliq mexanizmmini shunday takomillashtirish kerakki, u bozor iqtisodiyoti talablariga javob bera oladigan soliqlarning budjetga to'liq va o'z vaqtida tushishiga, ishlab chiqarishni kengaytirishga, eksport qilinadigan mahsulotning va daromadning ko'payishiga xizmat qilsin.

Soliq mexanizmning yo'nalishlari soliq siyosati bilan belgilanadi va shuning uchun soliq siyosati o'zgarsa soliqlarning keraksiz elementlari yo'qotilib, yangi elementlari kiritiladi. Masalan, mablag' aylanmasidan soliqlar yo'qotilib, o'miga qo'shilgan qiymat solig'i kiritilgan edi.

Shunday qilib, soliq mexanizmi uzlusiz o'zgarib, doimo takomillashib boradi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar – bu alohida soliq to'lovchilarga yoki ularning alohida guruhlari ulardan tashqarida qolgan soliq to'lovchilarga nisbatan Soliq kodeksi yoki boshqa qonunchilik hujjatlarida ko'zda tilgan yengilliklar (soliqdan ozod etish yoki ularni kamroq miqdorda to'lash) imkoniyatidir.

Mahalliy soliqlar (mol-mulk, yer, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish soliqlari) bo'yicha imtiyozlar belgilangan tartibda mahalliy davlat organlari tomonidan berilishi mumkin.

Soliq to'lovchi imtiyozdan foydalanish huquqi paydo bo'lgan paytdan boshlab bu huquq amal qilish davrining oxirigacha foydalanishi mumkin.

Soliq qonunchiliga muvofiq soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar shu imtiyoz natijasida bo'shatiladigan mablag'lar aniq maqsadlarda foydalanish sharti bilan ajratilishi mumkin. Agar shu shart bajarilmasa ko'rsatilgan maqsadda foydalanilmagan mablag'lar belgilangan tartibda jarima (penya)si bilan birga budjetga qaytariladi.

O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlarining quyidagi turlari qo'llaniladi:

- soliqqa tortish bazasini qisqartirish;
- soliq to'lovchilarni soliqdan ozod etish:

- 1) qisman;
- 2) to'liq;
- 3) vaqtinchalik.

O'zbekiston Respublikasida soliq imtiyozlar qatoriga soliqqa tortilmaydigan daromadlar (pensiylar, stipendiyalar, alimentlar, donorlar daromadlari va hokazolar) ham kiradi.

Budjetning imtiyozlar berish natijasida yo'qotishlari ishlab chiqarishni rivojlantirish va mehnat unumdarligini o'stirish hisobiga tiklanishi lozim.

### **Qisqacha xulosa**

Soliq siyosati soliqlarning jamiyatdagi o'rnini belgilab beradi. Davlat soliq siyosati yordamida mamlakatda asta - sekin, bosqichma-bosqich soliq islohotlarini amalga oshiradi. Bozor aloqalariga xos bo'lgan tartib va qoidalarni bizning kundalik

hayotimizga joriy etish, tadbirkorlikni keng tarqatish; soliq to'lovchilar tomonidan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini o'z vaqtida va to'liq to'lash, soliq to'lovchilarning soliq qonunchiligini chuqur bilishlari va uning talablarini to'liq bajarishlari - mamlakatimiz soliq siyosatining moliyaviy inqirozga qarshi kurash va iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi talablariga to'la mos kelishini ko'rsatdi.

Soliq tizimi soliqlarni tashkil qilish usullari, soliq elementlari va bajarilishi majburiy bo'lgan tartibni yoki soliqlar uchun "qonun" bo'lib xizmat qiluvchi tamoyillarining yig'indisini bildiradi.

Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida soliq siyosatining takomillashib borishi natijasida to'xtovsiz ravishda takomillashib bormoqda, bu esa o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiyoti samaradorligini oshirishga va aholi farovonligining to'xtovsiz o'sib borishiga olib bormoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Soliq siyosatining mohiyati.
2. Soliq siyosatining strategiyasi.
3. Soliq siyosatining taktikasi.
4. Soliq elementlari.
5. Soliq mexanizmi.
6. Soliq tizimi va soliqqa tortish tizimi orasidagi farq.
7. Soliq stavkasi va uning turlari.
8. Soliq imtiyozlari va ularning asoslanganlik darajasi.
9. Soliqni hisoblash tartibi.
10. Soliqni budjetga to'lash tartibi.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, - T.: Adolat, 2010 y. - 400 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 24 - avgustdag'i 4364-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 7 - fevraldag'i 1474 - sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 30 - dekabrdagi 1675 - sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.
5. Karimov I.A. 2012 - yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi// Xalq so'zi, 2012 - yil 20 - yanvar.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009, -55 b.
7. Мугалов А., Муталова Д. · Налогообложение малого бизнеса и

**WEB saytlar:**

- |  |   |
|--|---|
| 1. <a href="http://www.soliq.uz">http://www.soliq.uz</a> | - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.      |
| 2. <a href="http://www.gov.uz">http://www.gov.uz</a>     | - O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti.                    |
| 3. <a href="http://www.mf.uz">http://www.mf.uz</a>       | - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.            |
| 4. <a href="http://www.stat.uz">http://www.stat.uz</a>   | - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti. |

### **III bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI VA UNDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING TUTGAN O'RNI**

**Kalit so'zlar:** soliq, soliqqa tortish, iqtisodiyot, kichik biznes, tadbirkorlik, yakka tadbirkorlik, mezon.

#### **3.1. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va unda kichik biznes va tadbirkorlikning roli**

O'zbekistonning mustaqillikka erishishi o'zbek xalqining asriy orzularining amalga oshishiga va mamlakatimizning yuksalishiga, iqtisodiyotimizning kompleks rivojlanishiga, uning tarkibini kengaytirishga va takomillashtirishga, xalq farovonligini oshirishga va aholining erkin, farovon hayot kechirishiga keng imkoniyatlar yaratdi.

Ma'lumki, sobiq SSSR da umumittifoq-mehnat taqsimoti ta'sirida har bir iqtisodiy rayon va har bir ittifoqdosh respublika ma'lum bir kompleksga ixtisoslashgan edi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti paxta kompleksiga ixtisoslashgan edi va bu yerda paxta ishlab chiqarish, uning mahsulotlarini qayta ishlash va unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlar rivojlangan edi.

Shuning uchun, respublika iqtisodiyotining bir tomonlama rivojlanganligi natijasida, sobiq Ittifoq respublikalari orasidagi kooperatsiya aloqalarining barbod bo'lishi oqibatida iqtisodiyotning holati keskin yomonlashdi, ya'ni iqtisodiyotning sanoat va boshqa tarmoqlarida mahsulot ishlab chiqarish keskin kamayib ketdi, birinchi darajali zaruratga ega bo'lgan mahsulot yetishmasligi sezila boshladi va aholining turmush darajasi pasaya boshladi.

Tabiiyki, kuchli iqtisodiy potensialga ega bo'lgan, yer qa'rida ko'plab miqdorda Mendeleyev jadvalining deyarli barcha elementlari bo'lgan, juda qulay tabiiy-iqlimi sharoitga, rivojlangan kommunikatsiya vositalariga va iste'dodli kadrlarga ega bo'lgan O'zbekiston sharoitida bunday ahvolga rozi bo'lish mumkin emas edi.

Mamlakat rahbariyati qat'iyat bilan boshlagan ilmiy-amaliy asoslangan, aniq maqsadga yo'naltirilgan kompleks chora – tadbirlari (shu jumladan, jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining salbiy ta'siriga qarshi kurash) natijasida O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti asta – sekinlik bilan kompleks rivojlangan iqtisodiyotga aylana bordi.

Hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida mamlakatimizda iqtisodiyotni yanada rivojlantirish, uning tarkibini kengaytirish va takomillashtirish, uning samaradorligini oshirish bo'yicha katta tadbirlar amalga oshirilmoxda va ular 2004 - yildan boshlab iqtisodiyotimizning rivojlanish sur'atlarini jadallashtirib yubordi (1- jadval).

**1-jadval**

**O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari (oldingi yilga nisbatan foizlarda)<sup>5</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2004-y.	2008-y.	2009-y.	2010-y.	2011-y.	2011-y.
1.	Yalpi ichki mahsulot	107,7	109,0	108,1	108,3	108,3	108,3
2.	Sanoat ishlab chiqarishi hajmi	109,4	112,7	109,0	112,7	106,3	112,7
3.	Yalpi qishloq xo'jaligi mahsuloti	110,1	104,5	105,7	105,3	106,6	105,3

Iqtisodiyotning bunday jadal sur'atlar bilan rivojlanishiga, tarkibining takomillashuviga va samaradorligining oshishiga kichik biznes subyektlarining ta'siri tobora oshib bormoqda. Masalan, kichik biznes subyektlarining yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishdagi ulushi 1998 - yildagi 22,6 foizdan 2011 - yilda 54<sup>6</sup> foizgacha o'sdi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi olti yil mobaynida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 1,9 barobar ko'paydi va 2011 - yilga kelib, ular soni 400 mingtadan oshib ketdi.

O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha oxirgi paytlarda erishilgan yutuqlar Xalqaro valyuta jamg'armasi, boshqa obro'li xalqaro tashkilotlar va chet el analistik markazlari tomonidan tan olindi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov tomonidan olib borilayotgan mamlakatimizda makroiqtisodiy mo'tadillikni va iqtisodiy rivojlanishning jadal sur'atlarini ta'minlovchi iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, tuzilmaviy islohotlarni jadallashtirish siyosatining, hattoki hozirgi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida ham nihoyatda samaradorligini ta'kidladilar.

### **3.2. Kichik biznesning mohiyati va afzalliklari**

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, kichik biznes subyektlari O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida muhim o'rinn egallaydi. Farovonligimizning oshib borishini va iqtisodiyotimizning samaradorligining o'sishini bozor muñosabatlарining rivojisiz, tadbirdorlikning keng yoyilishisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Shunday ekan, "kichik biznes subyektlari kimlar?" degan savol tug'iladi.

Kichik biznes subyektlari katta korxonalardan hech qanday farq qilmaydilar va ulardan faqatgina miqyos (razmer) lari bilan farq qiladigan korxona, tashkilot va mikrofirmalardir, yoki kichik korxonalar deganimizda, qandaydir boshqa korxonalar

<sup>5</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlaridan.

tushunilmay, balki barcha mulkchilik shakllariga asoslangan oddiy korxonalar tushunilib, ulardan faqat miqyoslari bilan farq qiladilar.

Amaldaq qonunchilikka binoan kichik biznes subyektlari iqtisodiyotning ta'jhe.tarmoqlarida, mulkchilikning barcha shakllarida tuzilishi va ta'qiqlanmagan barcha faoliyat turlari bilan shug'ullanishi mumkin. Kichik biznes subyekti-huquqiy shaxs. U nomi yozilgan o'z muhriga, mustaqil balansga, bank muassasalarida hisob raqamiga ega bo'lishi lozim. U o'z nomidan shartnomalar tuzadi, o'z mulkiy huquqlari va burchlariga ega bo'ladi. Hakamlik sudi va betaraf hakamlik sudularida da'vegar yoki javobgar sifatida chiqishi mumkin.

Kichik biznes subyekti:

- fuqarolar, oila a'zolari va birgalikda faoliyat yuritayotgan boshqa shaxslar;
- davlat, ijrarachi, jamoa, qo'shma korxonalar, jamoat tashkilotlari va ularning korxonalari, aksionerlik jamiyatlari va boshqa huquqiy shaxslar;
- davlat mulkini tasarruf etish topshirilgan idoralar;
- jismoniy va huquqiy shaxslar hattkorligida tashkil etilishi mumkin;
- kichik biznes subyektlarini tashkil etish ko'p mablag' va ko'p vaqt talab etmaydi;

- kichik biznes subyektlarini har qanday, hattoki eng kichik aholi punktlarida ham joylaشتirish mumkin. Bu esa respublikamizning demografik o'ziga xosligi, ya'ni aholi sonining o'sish sur'atlari balandligi va natijada aholini ish joylari bilan ta'minlash muammolarini tezlik bilan hal qilishga imkon beradi. Bularning hammasi bizning respublikamiz sharoitida alohida ahamiyat kasb etadi;

- bozor konyunkturasi talablariga tez moslashadi;
- mahalliy va ikkilamchi xomashyodan maksimal foydalanish imkonini beradi;
- ichki bozorni iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan qisqa muddatlarda to'ldirish imkoniga ega;
- sog'lom raqobatni kuchaytirishga, mahsulot sifatini yaxshilashga, chakana narxlar pasayishiga sharoit yaratadi;
- yangi ish joylari yaratish va aholi punktlarining infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishga imkoniyatlar yaratadi;
- budjetni ishsizlik bo'yicha nafaqalar to'lash bilan bog'liq xarajatlardan ozod etadi.

Kichik biznes subyektlarining samaradorligiga eng yaxshi tasnifni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov berib o'tgan edi. "Kichik biznes – jamiyatda ham iqtisodiy, ham siyosiy vaziyatni mo'tadillashtirishga yordam beradigan o'rta tadbirdorlar sinfining paydo bo'lishi demakdir. Bu - respublika bozorini zarur iste'mol tovarlari va xizmatlar bilan boyitishdir. Bu yangi ish o'rinnadirit.

Shuni hamisha nazarda tutish kerakki, faqat kichik va xususiy tadbirdorlikni keng, hamma joyda rivojlantirish hisobigagina g'oyat keskin muammoni - aholining,

ayniqsa, qishloq joylarda va ortiqcha mehnat zaxiralari mavjud bo'lgan regionlarda ish bilan bandligini ta'minlash vazifasini hal qilishga qodir bo'lamiz".

Kichik biznesning ahamiyati, ayniqla, jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan hozirgi paytda yanada oshib bormoqda. Bu fikrni Prezident I.A. Karimovning "Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'naliш o'rmini bosolmaydigam katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'r'in egallaydi", -degan so'zlar hamda O'zbekiston Respublikasida 2011-yilni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi ham tasdiqlab turibdi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib respublika rahbariyati kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tezkor rivojlantirish masalalariga o'zining iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'naliшi sifatida qarab, ularga turli xil, jumladan soliqdan imtiyozlar berib kelmoqda. Buni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning "Yana bir muhim masala kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi uchun soliq va boshqa to'lovlar borasida qulaylik va yengilliklar yaratish bilan bog'liqdir" <sup>8</sup>, - deb aytgan so'zlar ham tasdiqlab turibdi.

Tahlillar korxonalarga asossiz ravishda kichik biznes subyekti maqomini berish, ularning kichik biznesga beriladigan imtiyozlardan o'rinsiz va nohaq foydalanishlariga olib kelishi mumkinligini ko'rsatmoqda. Shuning uchun korxona va tashkilotlarga «kichik biznes subyekti» maqomini berish huquqini beruvchi mezoni to'g'ri tanlab olish muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun dunyoda kichik biznesga doimiy ravishda alohida ahamiyat berib kelinmoqda, natijada kichik biznes ilg'or mamlakatlar iqtisodiyotining yetakchi qismiga aylangan (2-jadval).

## 2-jadval

### Ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha kichik biznes subyektlarining xususiyatlari<sup>9</sup>, foizlarda

No	Mamlakat	Kichik korxona-larning xo'jalik yurituvchi sub-yektlardagi ulushi	Kichik korxona-larda ishlovchi-larning barcha ishlovchilar-dagi ulushi	Kichik korxo-nalardagi yil-lilik sotuvining umumiш so-tvdagi ulushi	Kichik korxonalar-ning milliy daromadda-gi ulushi
1.	AQSH	99,8	53,0	45,0	34,9
2.	Yaponiya	99,3	77,7	51,8	56,6
3.	Germaniya	87,7	66,0	-	47,4
4.	Buyuk Britaniya	75,8	52,0	39,0	-

<sup>7</sup> Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartları va taraqqiyot kafolatlari. -T.: O'zbekiston, 1997. -197 b.

<sup>8</sup> Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi.// Xalq so'zi, 2011- yil 22-yanvar.

<sup>9</sup> Собиров Х.Р., Фаттахов А. А., Иминов О. Н. «Налогообложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан» -Т, Молия, 2000, - 41 б.

Buning oldini olish uchun korxona va tashkilotlarga kichik biznes subyekti maqomini beruvchi mezонни qat'iy belgilab qo'ymoq zarur.

Bunday mezon sifatida quyidagi:

- ishlovchilar soni;
- ishlab chiqarish quvvatlari;
- sotilgan mahsulot miqdori;
- asosiy fondlar qiymatining miqdori kabi ko'rsatkichlarni qo'llash mumkin.

Chet el adabiyotlarida, kichik biznes subyektlari qatoriga I dan 100 kishigacha ishlovchi xo'jalik yurituvchi subyektlar kiritiladi:

- 1 dan 20 kishigacha – hunarmandchilik ustaxonalari;
- 20 dan 100 kishigacha – kichik korxonalar.

Ammo, o'rganishlar shuni ko'rsatadiki, dunyoning turli mamlakatlarida xo'jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyektlari qatoriga kiritish mezonlari masalasida yagona fikr yo'q. Masalan, kichik biznesning ahamiyati juda baland bo'lган Yaponiyada xususiy korxonalar 7 guruh (1 kishidan 4 kishigacha, 5-9, 10-29, 30-49, 50-99, 100-299, 300-499 gacha) ga bo'lingan.

Germaniyada ancha yirik guruhlash qo'llaniladi (20-49, 50-99, 100-199, 200-499 gacha).

Buyuk Britaniyada xo'jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznesga kiritish 3 ta ko'rsatkich asosida amalga oshiriladi, ya'ni ishlovchilar sonidan tashqari balans miqdori va yillik mablag' aylanmasi miqdori qo'llaniladi.

AQSHda tarmoqlar xususiyatini hisobga olib "yillik sotuv miqdori" ko'rsatkichi qo'llaniladi. Masalan, transportda yillik sotuv miqdori 3,5 dan 20 mln. dollar orasida, qurilishda 9-21, ulgurji savdoda 15-35, chakana savdoda 3,5 – 13,5, xizmat ko'rsatish sohasida 2,5 – 14,5 mln. dollar<sup>10</sup> orasida bo'lsa, bu xo'jalik yurituvchi subyekt kichik biznes subyekti hisoblanadi.

Shunday qilib, xo'jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyekti qatoriga kiritish mezonlari masalasida dunyoda yagona yondashuv yo'q.

O'zbekiston Respublikasida hozirgi paytda korxona va tashkilotlarga kichik biznes subyektlari maqomini berish huquqiga ega bo'lган mezon sifatida yuqoridagi ko'rsatkichlardan faqat bittasi, ya'ni "ishlovchilar soni" ko'rsatkichi qabul qilingan.

E'tirof etish lozimki, ishlovchilar qatoriga korxonaning o'zining barcha toifadagi ishlovchilaridan tashqari, shu korxonaning filiallari, shu'ba korxonalarini va vakolatxonalarining ishlovchilarini hamda shartnomalar bo'yicha ish bajaruvchilar ham kiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 30-avgustdagagi "O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 - yil 6 - apreldagi "Xususiy tadbirdorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish choralarini to'g'risida"gi Farmoniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish to'g'risida" gi Farmoniga muvofiq kichik biznes subyektlari qatoriga quyidagilar:

<sup>10</sup> Собиров Х.Р., Фаттахов А. А., Иминов О. Н. «Налогобложение малого и среднего бизнеса в Республике Узбекистан» - Т.: Молия, 2000. - 43 б.

- yakka tadbirkorlar;
- mikrofirmalar va kichik korxonalar kiritiladi.

Iqtisodiy islohotlarning chuqurlashuvi va muayyan vaqt sharoitlarining o'zgarishi natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyekti qatoriga kiritish mezonlarining miqdorlari ham o'zgarishi mumkin (3-jadval).

### 3 – jadval

#### O'zbekiston Respublikasida xo'jalik yurituvchi subyektlarni kichik biznes subyektlari qatoriga kiritish mezonlari (ishlovchilar soni ortiq bo'lmasligi lozim)

№	Iqtisodiyat tarmoqlari	1998-y.	1998- y. <sup>11</sup>	2004- y.	2004-y. <sup>12</sup>
		Mikro-firma	Kichik korxona	Mikro-firma	Kichik korxona
1.	Ishlab chiqarish tarmoqlarida	10	40	20	-
2.	Xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida	-	-	10	-
3.	Ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda	5	10	5	-
4.	Yengil, oziq-ovqat va mebel sanoati, metall va yog'ochga ishlov berish, asbobsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarishda	-	-	-	100
5.	Mashinasozlik, metallurgiya, issiqlik – energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilishda va boshqa ishlab chiqarish sohalarida	10	20	-	50
6.	Fan, fanga xizmat qilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish, savdo va umumiy ovqatlanishda va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida	5	10	-	25

Jadvaldan ko'riniib turibdiki, kichik biznes subyektlarining me'zonlari har bir tarmoqda bir xil emas, balki turlichadir. Masalan:

1. Mikrofirma bo'lishi uchun xodimlar soni:

- ishlab chiqarish tarmoqlarida – 20 tadan;
- xizmat ko'rsatish va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida-10 tadan;
- ulgurji, chakana savdo va umumiy ovqatlanishda – 5 tadan oshmasligi lozim.

<sup>11</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 - yil 15 - apreldagi 159-soni Qarori.

<sup>12</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2004 - yilgi Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

## 2. Kichik biznes subyekti bo'lishi uchun xodimlar soni:

- yengil, oziq-ovqat, mebel sanoatlarida, metal va yog'ochga ishlov berish, asbobsozlik va qurilish materiallari ishlab chiqarishda - 100 tadan;
- mashinasozlik, metalluriya, issiqlik-energetika va kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish va qayta ishlash, qurilishda va boshqa ishlab chiqarish sohalarida - 50 tadan;
- fan, fanga xizmat qilish, transport, aloqa, xizmat ko'rsatish, savdo va umumiyligi ovqatlanishda va boshqa noishlab chiqarish tarmoqlarida - 25. tadan oshmasligi lozim.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyoti holatini mamlakatimiz oldida turgan asosiy ijtimoiy-iqtisodiy vazifalardan hamda kichik biznesni ustuvor sur'atlar bilan rivojlantirish muammolaridan kelib chiqib chuqur o'rghanish, korxonalar va tashkilotlarni kichik biznes subyektlari qatoriga qo'shish huquqini beruvchi me'zon sifatida hozir qo'llanilib kelayotgan "ishlovchilar soni" ko'rsatkichining o'zi yetarli emas. Shuning uchun mezon sifatida kichik biznes subyektlariga har taraflama baho bera oladigan sintetik ko'rsatkich, ya'ni "eng katta smenadagi ishlovchilar soni" ko'rsatkichini qo'llashni taklif etamiz.

Bu ko'rsatkichni qo'llash ish joylari tanqisligi yaqqol sezilib turgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida qo'shimcha investitsiyalar sarflamasdan turib yangi ish joylarini barpo etish, asosiy fondlardan foydalanishni oshirish, yangi qurilish uchun zarur bo'lgan yer sathini tejash, yangi kommunikatsiyalar qurishni talab etmasdan turib ishlab chiqarish quvvatlarini 3 baravargacha oshirishga va natijada bozorda talab katta bo'lgan turli xil sifatli mahsulotlarni ishlab chiqarishni ko'paytirishga imkon yaratadi.

### 3.3. Kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantrish

Yuqorida kichik biznesning samaradorligiga va uni tezkor rivojlantirish respublika iqtisodiyotini rivojlantirishni jadallashtirishga va samaradorligini oshirishga imkon yaratishiga ishonch hosil qildik. Shuni e'tiborga olib, mamlakatimizda 2011 - yil "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinib, shu bo'yicha maxsus dastur qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «...kichik biznesning ixcham va harakatchanligi, bozor konyunkturasi o'zgarishlari va iste'molchilar ehtiyojlariga nisbatan tez moslasha olishi uni jahon iqtisodiy inqirozi davrida yangi ish o'rinxlarini yaratish va aholi daromadini oshirish borasida eng qulay va maqbul vositaga aylantiradi»<sup>13</sup>, - deb ko'rsatib o'tdi va kichik biznesni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish zaruratini ustuvor vazifa qilib belgilab berdi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli yechishga qaratilgan qonunchilik hujjatlari uzluksiz ravishda qabul qilinib kelinmoqda.

Bu yo'nalishdagagi birinchi qonunchilik hujjati bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil 21- yanvardagi «Iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulkni himoya qilishni va tadbirkorlikni rivojlantirishni ta'minlash choralarini to'g'risida»gi Farmoni bo'ldi. Undan keyin 1995-yil dekabrida

<sup>13</sup>. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009, -46 b.

O'zbekiston Respublikasining «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni tartibga solish to'g'risida»gi Qonuni, 1998-yil 9-aprelda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-sonli Farmoni, 1998-yil 15-aprelda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining «Soliq solishning soddalashtirilgan tizimiga o'tgan mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun soliq solish to'g'risida»gi 159-sonli va 1998-yil 27-mayda «Kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish mexanizmini takomillashtirish to'g'risida»gi 232-sonli Qarorlari qabul qilindi.

Kichik biznes rivojlangani va mamlakat iqtisodiyotida uning ahamiyati oshgani sari uni rivojlantirishini boshqarish jarayoni, davlat boshqaruv organlari va bozor infratuzilmasi tomonidan qo'llashning turli shakllarini maqsadga yo'naltirish masalalari tobora ko'proq ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Buning isboti sifatida O'zbekiston Respublikasi rahbariyati tomonidan quyidagi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinganini ko'rish mumkin:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 - yil 11- apreldagi «Chet el xususiy investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi «Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 27-dekabrdagi 244-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2006-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi 744-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi 1024-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi 1245-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-sloni «O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrлari to'g'risida»gi Qarori;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7- fevraldagи 1474-sloni «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili davlat dasturi to'g'risida»gi Qarori.

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagи 4364-sloni «Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitni shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.

Yuqorida keltirilgan hujjatlar majmuasi kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy islohotlar talablaridan kelib chiqib, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash tizimini strategik takomillashtirish bo'yicha huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

### **Qisqacha xulosa**

O'zbekiston iqtisodiyoti oxirgi yillarda, hattoki jahon moliyaviy inqiroziga qaramay yuqori sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Bunda kichik biznes va tadbirkorlik alohida o'tin egallaydi. 2010-yilda kichik biznesning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 52,5 foizni tashkil etdi.

Kichik biznes samaradorlik darajasining balandligini e'tiborga olib, ularning rivojlanish sur'atlarini jadallashtirishga, shu jumladan ularni soliqqa tortishning soddashtirilgan tartibiga o'tkazish yo'li bilan soliqqa tortishni takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

1. O'zbekiston iqtisodiyotining oxirgi yillardagi rivojlanishi.
2. Kichik biznesning rivojlanish sur'atlari.
3. Kichik biznesning O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'mi.
4. Korxonalarga kichik biznes subyekti maqomini berish mezoni.
5. Kichik biznesning afzalliklari.
6. Kichik biznesni rivojlantirishning huquqiy asoslari.
7. Kichik biznes subyekti yuridik shaxslar qatoriga kiradimi?
8. Kichik biznesning rivojlanish istiqbollari.

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: Adolat, 2010- y. - 400 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 24 - avgustdag'i 4364-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 7 - fevraldag'i 1474 - sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 30 - dekabrdagi 1675 - sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari progrozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.
5. Karimov I.A. 2012 - yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012 - yil 20 - yanvar.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009, -55 b.
7. Муталов А., Муталова Д. Налогообложение малого бизнеса и предпринимательства. – Т.: Иқтисодиёт, 2010.-112 с.

**WEB saytlar:**

1. <http://www.soliq.uz>. - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti.
3. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
4. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

#### **IV bob. KICHIK BIZNESNI SOLIQQA TORTISH**

**Kalit so‘zlar:** soliq, soliqqa tortish, yagona soliq to‘lovi, kichik biznes, soddalashtirilgan, umumbelgilangan, umum davlat.

Kichik biznesni ustuvor sur’atlar bilan rivojlantirish masalasini O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati o‘zining soliq siyosatining eng asosiy vazifalari qatoriga qo‘yadi. Kichik biznesning rivojlanish sur’atlarini jadallashtirishga qaratilgan choralarining asosiyalaridan biri bo‘lib, ularni soliqqa tortishning eng samarali tartiblaridan biri bo‘lgan soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tkazish hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida «Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi - soliq to‘lovchilarining ayrim toifalari uchun qo‘llaniladi va yagona soliq to‘lovini, yagona yer solig‘ini hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo‘yicha qat’iy belgilangan soliqni hisoblab chiqarish hamda to‘lashning maxsus qoidalari qo‘llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo‘yicha soliq hisoboti taqdimga etilishini nazarda tutadi»<sup>14</sup>- deb keltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tkazilgan yuridik shaxslarning eng ko‘p qismi «yagona soliq to‘lovi» to‘lovchilarini bo‘lib, ular barcha tarmoqlarning kichik biznes subyektlarini va undan tashqari, miqyosidan qat’i nazar, savdo va umumiyligi ovqatlanish korxonalarini hamda lotoreyalar tashkil qilish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslarni o‘z ichlariga oladilar.

«Yagona yer solig‘i» to‘lovchilarining miqyosi ancha tor bo‘lib, bu soliq to‘lovchilar qatoriga faqatgina qishloq xo‘jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo‘jaligi yo‘nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba- eksperimental xo‘jaliklari va ta‘lim muassasalarining o‘quv-tajriba xo‘jaliklari kiradi.

«Qat’iy belgilangan soliq» to‘lovchilar qatoriga faoliyatning ayrim turlarini tavsiylovchi fizik ko‘rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan ayrim faoliyat turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar kiradi.

Yagona soliq to‘lovi to‘lovchilar davlatning budgetdan tashqari maxsus jamg‘armalariga majburiy ajratmalar to‘lashdan ham ozod etilgan, ammo yagona yer solig‘i to‘lovchilar – ozod etilmaganlar.


O‘zbekistonda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o‘tkazilgan xo‘jalik yurituvchi subyektlar to‘lovchi soliq tushumlari Respublika budgeti daromadlarini va ayniqsa, to‘g‘ri soliqlarni shakllantirishda sezilarli o‘rin tutadi (4-jadval va 1 va 2 - rasmlar).

<sup>14</sup> O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. -T.: Adolat, 2010. -349 b.


4-jadval

**Davlat budjeti daromadlari tarkibida yagona soliq to'lovi va qat'iy  
belgilangan soliqning tutgan o'rni, foizlarda<sup>15</sup>**

Nº	Ko'rsatkichlar	2005- y.	2006- y.	2007- y.	2008- y.	2011- y.
<b>Yagona soliq to'lovi (yagona soliq)</b>						
1.	To'g'ri soliqlarda	9,32	9,13	8,52	8,11	7,93
	Budjet jami daromadlarida	2,44	2,36	2,04	1,99	1,83
<b>Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yuridik va jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan solig'i</b>						
2.	To'g'ri soliqlarda	4,9	5,2	4,44	4,	4,72
	Budjet jami daromadlarida	1,3	1,3	1,06	1,	1,1



**1-rasm. 2011-yilda budjet jami daromadining tarkibi (foizlarda)<sup>16</sup>.**



**2-rasm. 2011-yilda to'g'ri soliqlar tushumlari tarkibi (foizlarda)<sup>17</sup>.**

<sup>15</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.


<sup>16</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan .

<sup>17</sup> O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

4-jadval va 1hamda 2- rasmlardan ko'rinish turibdiki, soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibida to'lanadigan yagona soliq to'lovi 2011-yilda budget jami daromadining 1,83 foizini, to'g'ri soliqlarning esa 7,93 foizini bergen.

Yagona soliq to'lovining to'lovchilari bo'lgan mikrofirmalar va kichik korxonalarining respublika budgeti daromadlaridagi va to'g'ri soliqlar tarkibidagi ulushlari o'sish o'miga pasaygan, ya'ni 2009-yilda yagona soliq to'lovining ulushi budget jami daromadlarida 2005-yildagi 2,44 foizdan 1,83 foizgacha, to'g'ri soliqlardagi ulushi esa 9,32 foizdan 7,93 foizgacha pasaygan.

Buning sabablari – yagona soliq to'lovi tushumlarining yillik o'sish sur'atlarining nisbatan pastligidadir (3-rasm).



**3 – rasm. O'zbekiston Respublikasi budgeti daromadlarini shakllantiruvchi soliq tushumlarining 2007-2011-yillardagi dinamikasi<sup>6</sup>.**

3-rasmdan ko'rinish turibdiki, mikrofirmalar va kichik korxonalar to'laydigan yagona soliq to'lovining budgetga tushumlari summasining o'sish sur'atlari budget jami daromadlarining va to'g'ri soliqlar tushumlarining o'sish sur'atlaridan past bo'lgan. Masalan, shu davrda budget jami daromadlari 139,4 foizga, to'g'ri soliqlar tushumlari 109,9 foizgacha o'sgan bo'lsa, yagona soliq to'lovi tushumlari hammasi bo'lib 39,2 foizga, ya'ni budget jami daromadlariga nisbatan deyarli 3,6 baravar, to'g'ri soliqlarga nisbatan deyarli 2,7 baravar sekinroq o'sgan.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibida qo'llaniladigan yagona soliq to'lovi umumbelgilangan tartibdag'i quyidagi umum davlat va mahalliy soliqlar hamda yig'imlarning:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;

- qo'shilgan qiymat solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- yer solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i hamda davlatning budgetdan tashqari:
- pensiya jamg'armasiga;
- respublika yo'l jamg'armasiga;
- ta'lim muassasalarini qayta ta'mirlash va jihozlash jamg'armasiga ajratmalar o'mniga faqat bitta o'zi to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 21-dekabrdagi 469-sonli «O'zbekiston Respublikasining 1997-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va davlat budgeti parametrlari to'g'risida»gi Qarori va undan keyingi qonunchilik hujjatlariga binoan kichik biznes subyektlariga soliqqa tortishning xohlagan tartibini tanlash huquqi berilgan, ya'ni ular xohlasalar soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida, xohlasalar soddalashtirilgan tartibida ishslashlari mumkin.

Shuning uchun ushbu o'quv qo'llanmada kichik biznes subyektlarining soliqqa tortishning umumbelgilangan va soddalashtirilgan tartiblarida faoliyat yuritishlarini alohida- alohida ko'rib chiqamiz.

#### **4.1. Kichik biznesni umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish**

Soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari soliqlarni barcha yuridik shaxslar kabi to'laydilar. Yuridik shaxslardan undiriladigan soliqlar davlat budgeti daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Shuning uchun korxonalarни soliqqa tortish samaradorligini oshirish mamlakatni rivojlantirish va inqirozga qarshi kurash bo'yicha davlat dasturlarini bajarishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Yuridik shaxslar - bu:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan o'z egaligida, xo'jalik boshqaruvida yoki tezkor boshqaruvida alohida mulki bo'lgan va shu mulk bilan o'z majburiyatlariga javob beradigan, davlat idoralarida ro'yxatdan o'tgan, soliq idoralarida INN ga, bankda o'z hisob raqamiga, mustaqil buxgalteriya balansiga yoki smetaga, o'z muhriga ega bo'lgan, o'z nomidan mulkiy va shaxsiy ega bo'lgan mulksiz huquqlarga ega bo'lishi va tadbirlar amalga oshirishi, mas'ul bo'lishi, sudda talabgor yoki javobgar bo'lishi mumkin bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, birlashmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlardir;

- chet mamlakat qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan va O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqiga ega bo'lgan chet el yoki xalqaro tashkilotlardir.

Yuridik shaxslar, shu jumladan kichik biznes subyektlari soliq to'lovchilar qatoriga kirishlari uchun ruxsat berilgan qandaydir faoliyatdan foyda (daromad) olishlari, yuridik shaxs faoliyati natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan qarzning o'mini bosish uchun albatta mulkka ega bo'lishlari lozim.

Umumbelgilangan soliqlar qaysi budgetga borib tushishiga qarab:

- umum davlat soliqlari va yig'implari;
- mahalliy soliqlari va yig'implarga guruhlanadi.

#### **Kichik biznes subyektlaridan undiriladigan umum davlat soliqlari**

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq yuridik shaxslardan, shu jumladan kichik biznes subyektlaridan undiriladigan umum davlat soliqlari qatoriga:

- yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq.

#### **4.1.1. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan foyda solig'i**

*Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, foyda, kichik biznes, soliq to'lovchi, obyekt, imtiyoz, hisoblash, soliqqa tortish bazasi, imtiyoz.*

Kichik biznes subyektlaridan olinadigan foyda solig'ining iqtisodiy mohiyati va to'lovchilari. Yuridik shaxslar to'laydigan soliqlar ichida foyda solig'i budget daromadlari tarkibida yetakchi o'rinni egallaydi va maksimal foyda olishni ko'zda tutadi. Bu soliq to'g'ri soliqlar guruhiga kirgani uchun korxonalar faoliyatining moliyaviy natijalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Foyda solig'i deganda, kichik biznes subyektlari foydasining bir qismini majburiy ravishda budgetga olib qo'yish tushuniladi.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 126-moddasiga muvofiq foyda solig'i to'lovchilari bo'lib yuridik shaxslar, shu jumladan quyidagi kichik biznes subyektlari xizmat qiladi:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari;
- O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyat yurituvchi yoki daromad manbai O'zbekiston Respublikasida bo'lgan norezidentlar.

Quyidagi kichik biznes subyektlari foyda solig'i to'lovchilari bo'lmaydilar:

- notijorat tashkilotlar;
- soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazilgan kichik biznes subyektlari.

Kichik biznes subyektlaridan olinadigan foyda solig'i to'lovchilari bo'lishlari uchun quyidagi talablarga javob berishlari lozim:

- man etilmagan faoliyatlardan biri bilan faoliyat yuritish natijasida foyda (daromad) olishi lozim;
- o'z mulkiga ega bo'lishi lozim;
- mustaqil tugallangan buxgalteriya balansiga ega bo'lishi lozim;
- bankda hisob raqamiga ega bo'lishi lozim;
- soliq inspeksiyasida identifikatsiya raqamiga ega bo'lishi lozim;
- hokimiyyatda ro'yxatdan o'tgan bo'lishi lozim;
- o'z muhriga ega bo'lishi lozim.

Bir vaqtning o'zida barcha talablarga javob bergandagina kichik biznes subyekti foyda solig'i to'lovchisi bo'lishi mumkin.

**Soliqqa tortish obyekti va bazasi.** Ushbu soliq turi bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib quyidagilar foydasi (daromadi) ning umumiy miqdori hisoblanadi:

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va O'zbekiston Respublikasida doimiy muassasa orqali faoliyat yurituvchi nerezidentlar;

- O'zbekiston Respublikasi rezidentlari va manbaida soliqqa tortilmagan O'zbekiston Respublikasi nerezidentlari.

Soliqqa tortish bazasi - foya (daromad)ning umumiy miqdoridan chegiriladigan xarajatlarni olib tashlangandan keyin chiqqan qoldiq sifatida hosil bo'lgan soliqqa tortiladigan foydadir.

O'tgan soliq davrlariga tegishli hozirgi soliq davriga o'tkazilishi lozim bo'lган zararlari bo'lsa, soliqqa tortish bazasi shu zarar miqdoriga kamaytiriladi.

Foya (daromadi) ning umumiy miqdoriga quyidagilar kiritiladi:

1. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan tushgan tushum. Tushum tarkibiga quyidagi summalar kiritiladi:

- ortib yuborilgan mahsulotga tirkalgan hujjatlarda ko'rsatilgan buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan bajarilgan ishlar dalolatnomasidagi xizmat ko'rsatilganini tasdiqlovchi hujjatlarda ko'rsatilgan mol-mulkning sotish narxi bilan qoldiq qiymati orasidagi farq miqdorida hisoblanadigan asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni, qimmatli qog'ozlarni, intellektual mulknini, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;

- mol-mulkning sotish narxi bilan qoldiq qiymati orasidagi farq miqdorida hisoblanadigan asosiy vositalarni, nomoddiy aktivlarni, qimmatli qog'ozlarni, intellektual mulknini, materiallar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan daromadlar;

- foizlar ko'rinishidagi daromadlar. Foizlarga depozit omonatlardan, qarz majburiyatlaridan va qimmatli qog'ozlardan olingan daromadlar;

- dividendlar;

- tekinga olingan mulk;

- mulknii ijaraga berishdan olingan daromadlar;

- roylati;

- qaytarib berilmaydigan moliyaviy yordam;

- davo muddati o'tgan kreditorlik va deponentlik qarzlarni o'chirishdan olingan daromadlar;

- ilgari undirib olingan xarajatlar, zararlar yoki ishonchsiz qarzlarning o'mini to'ldirishdan olingan daromadlar;

- valyuta hisob raqami bo'yicha musbat farq;

- favqulodda daromadlar;

- boshqa daromadlar.

**Soliq stavkalari.** Foya solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining kelasi moliyaviy yil asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi Qarori bilan tasdiqlanadi.

Foya solig'i stavkalari yil sayin pasayib borish xususiyatiga ega. Masalan, 1998-yili stavka 36 %, 2005- yilda u 15 %, 2007- yilda 10 % va 2012- yil uchun u 9% miqdorda belgilangan. Shu bilan birga, foya solig'i stavkalari foya

olishning oson yoki qiyinligiga qarab tarmoqlarda o'rtacha stavka (9 %) dan farq qiladi (5-jadval).

5-jadval  
Foyda solig'i stavkalari, soydaga nisbatan % da<sup>18</sup>

No	Soliq to'lovchilar	Stavka
1.	Yuridik shaxslar ( 2-3 bandlardagidan tashqari)	9
2.	Tijorat banklari	15
3.	Aukcionlar o'tkazishdan, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanishga litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini o'tkazishdan daromad oluvchi yuridik shaxslar	35
4.	Erkin valyutaga sotiladigan o'z mahsuloti eksportining (Prezidentning 1997- yil 10- oktabrdagi 1871- sonli Farmonida kor'satilgan xomashyo tovarlaridan tashqari) eksportchi korxonalar uchun eksport ulushi:	
	Sotuvning umumiyligi hajmida 15 dan 30 foizni tashkil etganda;	30 %ga pasayadi
	Sotuvning umumiyligi hajmida 30 va undan ko'p foizni tashkil etganda;	50 %ga pasayadi
5.	I bandda keltirilgan xizmat sohasi korxonalari uchun plastik kartochkalarni qo'llab pul to'langan xizmatlar uchun	10 %ga pasayadi

Doimiy korxona bilan bog'liq bo'limgan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari faqat daromad manbaida soliq ushlab qolinadigan daromadlaridan soliq to'laydilar va soliqlarni quyidagi stavkalar bo'yicha to'laydilar (6-jadval).

6-jadval.  
Norezidentlar daromadlariga soliq stavkalari<sup>19</sup>

No	Soliqqa tortish obyektlari	Stavka, %
1.	Dividendlar va foizlar	10
2.	Sug'urta mukofotlari, sug'urta va qo'shimcha sug'urta risk to'lovlar	10
3.	Xalqaro aloqalar uchun telekommunikatsiyalar, xalqaro tashuvlar (fraxtdan daromadlar)	6
4.	Royalti, ijaradan daromadlar, xizmat ko'rsatish, shu jumladan boshqaruv xizmatlaridan, maslahatlar berishdan va boshqa daromadlar	20

<sup>18</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroqitsodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

<sup>19</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroqitsodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirayotgan yuridik shaxsning - O'zbekiston Respublikasi norezidentlarining xarajatlariga O'zbekiston Respublikasida faoliyatni doimiy muassasa orqali amalga oshirishdan olingan daromadlari bilan bevosita bo'lgan barcha xarajatlar kiradi va ular foyda solig'ini O'zbekiston Respublikasi rezidentlari kabi to'laydilar.

**Foya solig'idan imtiyozlar.** Foya solig'idan quyidagi yuridik shaxslar ozod etilgan:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi, «O'zbekiston chernobilchilar» assotsiatsiyasi mulki bo'lgan shtatdagi ishlovchilarning yarmidan kam bo'lмаган qismini nogironlar, 1941-1945 -yil urush va mehnat faxriylari tashkil etadigan (savdo, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan tashqari);

- davolash muassasalar qoshidagi davolash-ishlab chiqarish ustaxonalari;
- jazoni o'tash muassasalar;
- ichki ishlar organlari qoshidagi qo'riqlash bo'limlari.

Foya solig'idan quyidagi faoliyatdan olingan yuridik shaxslar foydasi ozod etilgan:

- protez-ortopediya buyumlari, nogironlar uchun inventarlar ishlab chiqarish;
- shahar yo'lovchi transportida yo'lovchilarni tashishdan olingan foya;
- tarix va madaniyat yodgorliklarini ta'mirlashdan olingan foya;
- investitsion fondlarning xususiy lashtirilgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga yo'naltiriladigan foydasi;

- xalq banki tomonidan fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag'lardan foydalananishdan olingan foya.

Kichik biznes subyektlarining soliq solinadigan foydasi quyidagi summaga kamaytiriladi:

- ekologiya, sog'lomlashtirish va xayriya jamg'armalariga, madaniyat, sog'liqi saqlash, mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish, jismoniy tarbiya va sport muassasalariga, ta'lim muassasalariga, mahalliy davlat hokimiyyati organlariga, fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga beriladigan badallar, homiylik va xayriya tariqasidagi mablag'lar summasiga, biroq soliq solinadigan foydaning ikki foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamnasining qarori asosida kollejlar, akademik litseylar, maktablar va maktabgacha ta'lim-tarbiya muassasalar qurilishiga yo'naltirilgan mablag'lar summasiga, lekin soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

- ishlab chiqarishni modernizatsiyalashga, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlashga, yangi texnologik jihoz xarid qilishga, ishlab chiqarishni yangi qurilish shaklida kengaytirishga, ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun foydalilanadigan binolar va inshootlarni qayta ta'mirlashga, shuningdek, ushbu maqsadlar uchun olingan kreditlarni uzishga, lizing obyekti qiymatining o'mini qoplashga yo'naltiriladigan mablag'lar summasiga, tegishli soliq davrida hisoblangan amortizatsiyani chegirib tashlagan holda, ammo soliq solinadigan foydaning 30 foizidan ko'p bo'lмаган miqdorda;

- yosh oilalar toifasiga kiruvchi xodimlarga ipoteka kreditlari badallari to'lashga va (yoki) mulk sifatida uy-joy olishga tekin yonaltiriladigan mablag'lar summasiga, ammo soliq solinadigan bazaning 10 foizidan oshmagan miqdorda;

- diniy va jamoat birlashmalarining, xayriya jamg'armalarining mulkida bo'lgan korxonalar foydasidan shu birlashmalar va jamg'arnalarning ustavda belgilangan faoliyatini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan ajratmalari summasiga;

- qo'shimcha foyda solig'ini to'lovchilar uchun sof qo'shimcha foyda summasiga;

- banklarning soliq solinadigan foydasi jismoniy shaxslarning muddatli omonatlari, plastik kartochkalari bo'yicha omonatlar hamda joylashtirilgan jamg'arma sertifikatlari hajmlarining ko'paygan summasiga bo'shagan mablag'larni yuqorida ko'rsatilgan omonatlar bo'yicha foiz stavkalarini oshirishga maqsadli yo'naltirish sharti bilan kamaytiriladi.

**Soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.** Kichik biznes subyektlari ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foya solig'i bo'yicha soliq hisobini, soliq to'lovchi ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq inspeksiyalariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Foya solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjatlarida belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Kichik biznes subyektlari foya solig'ini foya solig'i bo'yicha hisobotlarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydilar.

Joriy to'lovlardan belgilangan muddatlargacha to'lanmasa ularga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,07 foiz miqdorida penya-moliyaviy jazo qo'llaniladi.

Hisobot davrida ish, xizmat realizatsiyasidan olgan daromadi 200 karrali minimal ish haqidan kam bo'lgan korxonalar chorakda bir marta tolov to'laydilar. Avvalgi choraklarda to'lagan soliqlari hisobga olib boriladi.

Ko'proqlari har oyda to'laydilar.

Kichik biznes subyektlari ortib boruvchi yakun bilan chiqarilgan foya solig'i boyicha soliq hisobini, soliq ro'yxatdan o'tgan joydagi soliq inspeksiyalariga yil choraklariga oid va yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatlarida topshiradilar.

Foya solig'ini hisoblab chiqarish chog'ida chegirilgan xarajatlar ro'yxati 2006-yil 1-yanvardan boshlab kengaytirildi. Unga xususan, quyidagilar kiritildi:

- banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlarining kreditlari uchun foizlar

bo'yicha to'lovlardan summalar, bundan banklar va boshqa moliya-kredit tashkilotlaridan investitsiya davrida kapital qo'yilmalar tarkibiga kiramagan

investitsiyalarga olingan kreditlar bo'yicha foizlar hamda muddati o'tgan va kechikitirilgan ssudalar bo'yicha foizlar bundan mustasno;

- xizmat yengil transporti va xizmat mikroavtobusini tutib turish va ijara olish xarajatlar;

- qimmalni qog'ozlarni chiqarish bilan bog'liq xarajatlar;

- mukofotlashning tizim shartlari bo'yicha ayrim mukofotlar va ular bo'yicha ijtimoiy jamg'armalarga ajratmalar.

Zararlarni ko'chirish mexanizmi joriy etildi, unga ko'ra soliq to'lovchi ushbu zarar ko'rilgan hisobot yilidan keyingi 5 yil davomida. Keyingi davrlarning soliq solinadigan foydasini kamaytirish hisobiga, biroq joriy yilda soliq solinadigan foydaning 50 %dan ko'p bo'lmagan miqdorda zararlarni ko'chirishga haqlidir.

Kichik biznes subyektlari tugatilgan taqdirda soliq to'lovchidan kamroq bo'lgan davr uchun hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishni yozma xabarnoma topshirish yo'lli bilan talab qilib olishi mumkin. Xabarnomada buning sababi va hisobotlar, soliq hisobi qachon va qaysi davr uchun taqdim etilishi lozimiligi ko'rsatiladi.

Kichik biznes subyektlari tugatish haqida belgilangan tartibda qaror qabul qilingan taqdirda tugatuvchi komissiyasi 5 kunlik muddatda bu haqda soliq o'rganini yozma ravishda xabardor qiladi.

Kichik biznes subyektlarini tugatish haqida qaror qabul qilingandan so'ng soliq to'lovchi 15 kun ichida soliq organiga hisobotlar, soliq hisobini taqdim etishi shart.

Foya solig'i bo'yicha hisobotlar, hisob-kitoblar qonun hujjalarda belgilangan shakl va tartibda taqdim etiladi.

Kichik biznes subyektlari foya solig'ini foya solig'i bo'yicha hisoblarni topshirish uchun belgilangan kundan boshlab 5 kun ichida to'laydilar.

#### 4.1.2. Qo'shilgan qiymat solig'i

*Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, qo'shilgan qiymat, obyekt, baza, stavka, imtiyoz.*

Qo'shilgan qiymat solig'inining iqtisodiy mohiyati. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq qo'shilgan qiymat solig'i deganda kichik biznes subyektlarida yangi yaratilgan qiymatning va mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinganda amalga oshiriladigan ajratmalarning bir qismini budgetga majburan olib qo'yish tushuniladi.

Qo'shilgan qiymat solig'inining uchta tomoni bor:

- mijozlar mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotib olganda, ularni sotuvchilarga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

- mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotuvchi korxonalar o'z mahsulotlari (ishlar, xizmatlar) qiymati ustiga qo'yib mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotib oltuvchilar, ya'ni iste'molchilardan undirib olinadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasi;

- mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) sotgan korxonalarning iste'molchilardan olgan qo'shilgan qiymat solig'i summasidan shu mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish uchun mahsulot yetkazuvchilardan olgan, mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ga qo'shib to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ajratib olgandan qolgan farqi sifatida aniqlab budgetga to'lanadigan qo'shilgan qiymat solig'i summasidir.

Qo'shilgan qiymat solig'inining asosiy ustunligi shundaki, ishlab chiqarishning har bir bo'g'indida to'langan soliqning miqdorini aniq hisoblash mumkin va eksport subsidiyalari berilgan paytdagi qonun buzilishlarining oldini oladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i umumiy soliq tushumlari orasida ishonchli manbadir.

**Soliq to'lovchilar.** Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarii chetdan qaraganda mahsulot ishlab chiqaruvchi, ish va xizmatlar bajaruvchi yuridik shaxslardek tuyuladi. Ana shu yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ining huquqiy to'lovchilari bo'ladi. Aslida esa yuridik shaxslar qo'shilgan qiymat solig'ini mahsulot, ish va xizmatlarni sotib oluvchi korxona, tashkilot va boshqalar sotib olgan mahsulot, ish va xizmatlar ustiga qo'yib yuboradilar. Demak, qo'shilgan qiymat solig'ining haqiqiy to'lovchilari shu mahsulot, ish va xizmatlarni iste'mol qiluvchi yuridik shaxslardir. Ularning oxirgi qiymati chakana savdo orqali oxirgi iste'molchi bo'lgan aholiga yetib boradi, ya'ni korxona bir vaqtning o'zida ta'minotchiga soliq to'lovchi, sotib oluvchilar uchun esa soliq oluvchi sifatida namoyon bo'ladi. Import qilinadigan mahsulotlarga nisbatan qo'shilgan qiymat solig'ining to'lovchilari bo'lib, ushbu mahsulotlarni import qiladigan yuridik shaxslar hisoblanadi.

**Soliqqa tortish obyekti va soliq stavkalari.** Qo'shilgan qiymat solig'ining soliqqa tortish obyekti mahsulot ortish, ishlar va xizmatlar sotish solinadigan obyekti - O'zbekiston Respublikasining bojxona qonunlariga muvofiq belgilangan bojxona rejimlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududiga import qilinadigan mahsulotlardir.

O'zbekiston Respublikasida qo'shilgan qiymat solig'ining stavkalari stabillashib oxirgi yillarda umuman o'zgarmasdan kelmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prochnizi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qaroriga binoan 2012- yil uchun qo'shilgan qiymat solig'i stavkasi 20 foizga va 0 foizga teng qilib belgilab qo'yilgan (7-jadval).

**7-jadval**

**Qo'shilgan qiymat solig'i stavkalari**

Stavkalari	Soliqqa tortish obyekti
20 %	Soliqqa tortiladigan obyekt, soliqqa tortiladigan import
0 %	1. Mahsulotlarni erkin almashtiriladigan valyutaga eksport qilish. 2. Chet el vakolatxonalari xodimlari (o'zlari bilan birga yashovchi, ammo O'zbekiston Respublikasi fuqarosi bo'lмаган оила а'золари ham) rasman shaxsiy foydalanishlari uchun sotiladigan mahsulotlar

Qo'shilgan qiymat solig'idan imtiyozlar bu korxonaning iste'molchilarga tovar ortganda, ish, xizmat sotganda qo'shimcha qiymat solig'ini hisoblarnaslik hamda budjetga soliq to'lamaslikni ifodalaydi. Bunday imtiyozlarning Soliq kodeksida 40 ga yaqin turi bor.

**Soliqni hisoblashi va to'lash tartibi.** Qo'shilgan qiymat solig'idan bo'nak (avans) to'lovi bu har oyning ichida avvaldan budjetga o'n kunliklarda o'tkazib beriladigan summadir. U joriy oyning 15 va 25 kunlarigacha hamda keyingi oyning 5- sanasigacha to'lanishi shart. Uning har safargi bo'nak summasi o'tgan hisobot oyidagi summaning uchdan bir bo'lagi miqdorida aniqlanadi.

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilari bu O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslar, tovarlar importi bo'yicha yuridik shaxslar hisoblanadi.

Budgetga to'lanishi lozim bo'lган qo'shilgan qiymat solig'i summasi korxonaning mahsulot (ish, xizmatlar)ni iste'molchiga sotib u bilan birga olgan qo'shimcha qiymat solig'i summasidan, uning o'ziga mahsulot yetkazuvchilar, ish, xizmat ko'rsatganlar mahsulot (ish, xizmatlar) bilan birga to'langan qo'shimcha qiymat solig'i summasini chegirib tashlab, farqi budgetga to'lanadigan qo'shimcha qiymat solig'i summasi bo'ladi.

Qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha haqiqiy hisoblashish har oyning haqiqiy aylanmasidan kelib chiqib hisoblanadi. Bu yerda har oylik soliq hisobi o'sib boruvchi yakun bilan keying oyning 15 sanasidan kechiktirmay soliq to'lovchilar joylashgan soliq idorasiga topshiriladi. Agar soliq hisobida qo'shimcha qiymat solig'i summasi qo'shimcha to'lashga tegishli bo'lib chiqsa, bu summa 5 kun ichida budgetga o'tkazilishi shart.

Import qilinadigan mahsulotlar bo'yicha qo'shilgan qiymat solig'I bojxonada rasmiylashtirish jarayonida yoki bojxonada rasmiylashtirilgandan keyin budgetga to'lanadi.

#### 4.1.3. Aksiz solig'i

*Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, aksiz, obyekt, baza, stavka, kichik biznes.*

**Aksiz solig'i mohiyati.** Aksiz solig'i korxona mahsulotlar va xizmatlari bahosi ustiga yoki tarifiga ustama shaklida to'g'ridan – to'g'ri kiritiluvchi egri soliq turi hisoblanadi. Aksizlar sotilayotgan mahsulot yoki xizmatlar bahosi ustiga ustama shaklida qo'yiladi va ularning pirovard to'lovchisi iste'molchi hisoblanadi.

Aksiz fransuzcha "accise", lotincha accidere so'zlaridan olingen bo'lib, tarima qilinganda kesib olish ma'nosini anglatadi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligidagi aksiz solig'iga quyidagicha izoh berilgan:

Aksiz solig'i sof daromadning narxda va qo'shilgan qiymat solig'iga tortiladigan bazada hisobga olinadigan, egri soliq sifatida budgetga undiriladigan bir qismidan iboratdir.

Aksiz solig'i sof daromadning emas, balki yuklab jo'natilgan tovarlar qiymatining bir qismini egri soliq sifatida budgetga yo'naltirish shaklidir.

Aksiz solig'ida cheklangan turdag'i aksizosti mahsulotlarini sotish aylanmasi soliqqa tortiladigan obyekti bo'lib hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, qo'shilgan qiymat solig'idagi soliqqa tortish obyekti bo'lган ish va xizmatlar aksiz solig'iga tortilmaydi.

Agar qo'shilgan qiymat solig'i tovar ishlab chiqarish va ayirboshlashning barcha bosqichlarida vujudga kelsa va undirilsa, aksizlar faqat ishlab chiqarish sohasidagina amal qiladi. Ushbu qoidadan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kelinayotgan aksizosti mahsulotlari va tovarlari istisnodir.

Aksiz solig'ini to'lovchilar bo'lib, aksizosti mahsulotlarini sotib oluvchi va qayta sotuvchi tashkilotlar hisoblanadi.

Aksiz solig'i o'z mohiyatiga ko'ra tovar bahosiga kiritiluvchi va oxirgi iste'molchi tomonidan to'lanadigan soliqdir.

**Soliq to'lovchilar va soliqqa tortish obyekti.** Aksiz solig'i to'lovchilar deb, mulk shaklidan qat'i nazar aksiz to'lanadigan tovarlar ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslar va shu jumladan kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Aksizlanadigan tovarlar uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib:

- alkogolli mahsulotlar bo'yicha-unga nisbatan qat'iy soliq stavkalar belgilangan. Sotilgan alkogolli mahsulotlar hajmining naturadagi ifodasi (yuklab jo'natilgan tovar tarkibida 100 % suvsiz spirtning hajm birligiga yoki mahsulot hajmi birligiga mutlaq summada);

- boshqa aksizlanadigan mahsulotlar bo'yicha-berilgan xomashyodan ishlab chiqarilganini o'z ichiga olgan holda, kelishilgan (erkin) narxlarda (o'z ichiga aksiz solig'i summasini olgan) qo'shilgan qiymat solig'ini hisobga olmagan holda yuklab jo'natilgan tovarning qiymati yoki uning fizik hajmi hisoblanadi;

- O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqariladigan suyultirilgan gaz (O'zkommunxizmat agentligi korxonalari orqali aholiga tarqatiladigan suyultirilgan gaz bundan mustasno);

- tekinga beriladigan aksizlanadigan tovar ham soliq solish obyekti hisoblanadi;

- alkogolli mahsulotlar bo'yicha - unga nisbatan qat'iy soliq stavkalar belgilangan. Sotilgan alkogolli mahsulotlar hajmining naturadagi ifodasi (yuklab jo'natilgan tovar tarkibida 100 % suvsiz spirtning hajm birligiga yoki mahsulot hajmi birligiga mutlaq summada);

- O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqariladigan suyultirilgan gazga - 26 % stavka bilan aksiz solig'i belgilangan (O'zkommunxizmat agentligi korxonalari orqali aholiga tarqatiladigan suyultirilgan gaz bundan mustasno).

Sotilgan gaz qiymati soliq obyekti bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan quyidagi mahsulotlardan aksiz solig'i 2012-yilda quyidagi stavkalarda olinadi (8-jadval).

#### 8-jadval

#### O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan tovarlar uchun aksiz solig'i stavkalari

Nº	Tovarlar nomi	QQSni hisobga olmay sotilgan tovar qiymati uchun, foiz	Bir o'lechov birligiga, so'mda
1.	Etil spirti (1 dal)		2636
2.	Vino (1 dal tayyor mahsulot uchun)		4981
3.	Konyak, aroq va boshqa alkogolli mahsulot (1 dal tayyor mahsulot uchun)		21800
4.	Pivo (1 dal tayyor mahsulot uchun)		2587
5.	O'simlik (paxta) yog'i 1 tonna uchun:		
A	O'ziq-ovqat yog'i (salomas uchun)		723690

	ishlatiladigan va Ozbekiston yog'ida tashqari)		
B	Texnik moy		398090
6.	Sigaretalar (1 ming dona uchun):		
A	Filtrli		107 39
B	Filtrsiz papiroslar		5183
7.	Zargarlik buyumlari	25	
8.	"Jeneral Motors O'zbekiston" avtomobilillari	29	
9.	Kumushdan ishlangan oshxonalar anjomlari	11	
10.	Qimmatbaho metallar		
11.	Neft mahsulotlari:		
A	AI-80 benzini	40 %, ammo kamida 321430 so'm	
B	Ai -91, Ai-92, Ai-93 benzini	40 %, ammo kamida 353430 so'm	
C	Ai-95 benzini	40 %, ammo kamida 408890 so'm	
D	Dizel yoqilg'isi	34 %, ammo kamida 273400 so'm	
E	EKO dizel yoqilg'isi	34 %, ammo kamida 284250 so'm	
F	Aviakerosin	9 %, ammo kamida 50580 so'm	
H	Motor moyi	25 %, ammo kamida 207000 so'm	
12.	Tabiiy gaz, aholiga sotiladigandan tashqari	25	
13.	Ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotiladigan suyultirilgan gaz	26	

**Soliqdan imtiyozlar.** Aksiz solig'i quyidagilarga solinmaydi:

-aksiz to'lanadigan tovarlarni ekspert uchun yetkazish, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan alohida tovarlarning ro'yxati bundan mustasno;

-yog'-moy va «O'zbekiston» yog'ini ishlab chiqarishda ishlatiladigan paxta yog'ini yetkazish;

-O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan xalq ta'limi va sog'liqni saqlash tizimlari ehtiyojlar uchun ixtisoslashtirilgan mebel.

Imtiyoz berish maqsadlarida ixtisoslashtirilgan mebel deganda quyidagilar tushuniladi:

- davlat va nodavlat ta'limi va tibbiyot muassasalarini ta'minlash uchun sotiladigan mebel;

ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini ta'minlash uchun ta'minot va sotish bilan shug'ullanuvchi qaramog'idagi tashkilotlarga sotiladigan mebel;

Ushbu imtiyoz ta'lif va sog'liqni saqlash tizimlarini ta'minlash uchun ixtisoslashtirilgan mebelni sotib olish bo'yicha tuzilgan shartnomalar mavjud bo'lgan taqdirda beriladi. Mazkur mebel boshqa iste'molchilarga sotilganda unga umumbelgilangan tartibda aksiz solig'i solinadi;

- alkogolli mahsulotlar ishlab chiqarish uchun «O'zuzumsanoatholding» kompaniyasi va «O'zkimyozanoat» assotsiatsiyasi hamda qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga spirit sotilganda;
- «O'zuzumsanoatholding» kompaniyasi hamda qishloq va suv xo'jaligi vazirligi korxonalariga vino ishlab chiqarish uchun vino materiallari sotilganda;
- «O'zkommunxizmat» agentligi korxonalarini orqali aholiga tarqatiladigan suytultirilgan gaz qiymati aksiz solig'idan ozod etiladi.

**Aksiz solig'i hisob-kitobi va aksiz solig'ini budjetga to'lash tartibi.** Aksiz solig'i hisob – kitobi soliq inspeksiyasiga:

- aksiz solig'i to'lovchi kichik biznes subyektlari tomonidan - yilning har choragida soliq davridan keyingi oyning 25 - kunidan kechiktirmay;
- kichik biznes subyekti bo'lmagan soliq to'lovchilar tomonidan-har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25 kunidan kechiktirmay taqdim etiladi.

Hisoblab chiqarilgan aksiz solig'i summasi budjetga quyidagi muddatlarda to'lanadi:

- joriy oyning 13 - kunidan kechiktirmay- joriy oyning birinchi 10 kunligi uchun;
- joriy oyning 23 - kunidan kechiktirmay- joriy oyning ikkinchi 10 kunligi uchun;
- kelgusi oyning 3 - kunidan kechiktirmay- hisobot oyning qolgan kunlari uchun.

Import qilinadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini to'lash bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi.

Aksiz markalari bilan tamg'alanishi zarur bo'lgan import qilinadigan aksiz to'lanadigan tovarlar bo'yicha aksiz solig'ini aksiz markalari olingunga qadar to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida ishlab chiqariladigan, shuningdek, bojxona hududiga import qilinadigan tamaki mahsulotlari va alkogolli ichimliklar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda aksiz markalari bilan tamg'alanishi shart.

#### **4.1.4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar**

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni qazib olish, mineral xomashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadilar. Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydi:

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 243 - moddasiga muvofiq:

O'zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni qazib olish, mineral xomashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadilar. Yer qa'ridan foydalanuvchilar quyidagi soliqlar va maxsus to'lovlarini to'laydi:

1. Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq.
2. Qo'shimcha foyda solig'i.
3. Bonus (imzoli va tijoratbop topilma bonuslar).
4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliq.

**Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilari bo'lib, quyidagi yer qa'ridan foydalanuvchilar hisoblanadi:**

- foydali qazilmalarni yer qa'ridan qazib olish, shu jumladan texnogen mineral birikmalardan ajratib olish bilan shug'ullanuvchilar;
- foydali qazilmalarni qayta ishlab, foydali komponentlarni ajratib oluvchilar.

**Soliqqa tortish obyekti va bazasi.** Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq obyekti bo'lib qazib (ajratib) olingan tayyor mahsulot hajmi hisoblanadi.

Tayyor mahsulotlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi. Tayyor mahsulot bo'lib, yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi belgilangan va sotish yoki yetkazib berish uchun hamda o'z mahsulotini ishlab chiqarish va boshqa maqsadlarga ko'zlangan foydali qazilma xizmat qiladi.

Soliqqa tortish obyekti har bir tayyor mahsulot uchun alohida aniqlanadi.

---

Uglevodorodlar uchun quyidagilar soliqqa tortish obyekti bo'lib xizmat qiladi:

- birinchi ishlov berilgan qazib chiqarilgan uglevodorodlar, shu jumladan yo'lakay foydali qazilmalar va foydali komponentlar;
- uglevodorodlarni qayta ishlash paytida ajratib olingan, ammoy ilgarigi qazib olish va qayta ishlanayotgan foydali qazilmalar tarkibida tayyor mahsulot sifatida soliqqa tortilmagan foydali komponentlar hisoblanadi.

Yerning mahsuldor qismida yetarli bosimni saqlash va yopiq texnologik sikl doirasida gaz kondensatini ajratib olish maqsadida yer ostiga qaytadan haydalanadigan tabiiy gaz miqdori soliqqa tortish obyekti bo'la olmaydi.

Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlarning soliqqa tortish obyekti bo'lib ajratib olingan va shu jumladan texnogen mineral hosilalardan ajratib olingan qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar miqdori xizmat qiladi.

Qattiq foydali qazilmalar bo'yicha soliqqa tortish obyekti bo'lib:

- qazib yoki ajratib olingan qattiq foydali qazilmalar va shu jumladan texnogen mineral hosilalardan qazib yoki ajratib olingan qattiq foydali qazilmalar;
- qayta ishlovchi korxonalar tomonidan qayta ishlash jarayonida ajratib olingan foydali qazilmalar xizmat qiladi.

Soliq to'lovchilarga berilgan yer maydonlaridan qazib olingan va o'zlarining xo'jalik va maishiy maqsadlarida foydalaniladigan umumtarqalgan foydali qazilmalar soliqqa tortish obyekti bo'lib hisoblanmaydi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblash uchun soliqqa tortish

bazasi bo'lib ajratib olingen tayyor mahsulotning hisobot davrida o'rtacha narxda sotilgan miqdori xizmat qiladi. Agar hisobot davrida tayyor mahsulot sotilmay qolsa, soliqqa tortish bazasi bo'lib tayyor mahsulotning oxirgi davrda sotilgandagi o'rtacha narxidan kelib chiqib aniqlanadi. Agar tayyor mahsulot umuman sotilmay qolsa, soliqqa tortish bazasi bo'lib ushbu tayyor mahsulotni qazib olishning hisobot davridagi ishlab chiqarish tannarxi xizmat qiladi. Bu holda yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchisi hisobot davrida to'lagan soliq summasiga amalda sotilgan davrdagi o'rtacha narx bo'yicha tuzatish kiritadi.

Tayyor mahsulotni tannarxdan past narxda sotilganda o'rtacha narxni hisoblash uchun tannarxdan foydalilanadi, ammo bu tannarx deklaratsiya qilingan narxlardan yuqori bo'lmasligi lozim.

Agar tayyor mahsulot yoki uning bir qismi boshqa tayyor mahsulotni ishlab chiqarishga ishlatsa, yoki tayyor mahsulot o'z ishlab chiqarish maqsadlarida foydalansilsa, bu mahsulot uchun soliqqa tortish bazasi ajratib olingen tayyor mahsulotning ishlab chiqarish tannarxidan kelib chiqib aniqlanadi.

**Soliq stavkasi va soliqni hisoblash hamda to'lash tartibi.** Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq soliqqa tortish bazasi va belgilangan stavkadan kelib chiqib hisoblanadi. Soliq stavkasi har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori bilan indeksatsiyalanadi va tasdiqlanadi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq hisobi soliq to'lovchi joylashgan hududdagi soliq inspekteysiysiga mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25 - sanasidan kechiktirmay topshiriladi. Jismoniy shaxslar tomonidan yiliga bir marta keyingi yilning 1-fevrali sanasidan kechiktirmay topshiriladi.

Yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqni to'lash soliq hisobini topshirish muddatidan kechiktirmay amalga oshiriladi.

## 2. Qo'shimcha foya solig'i.

**Soliq to'lovchilar va soliqqa tortish bazasi.** Bu soliqni to'lovchilar quyidagilardir:

- alohida foydali qazilmalarni (foydali komponentlarni) qazib (ajratib) olishni amalga oshiruvchilar;

- foydali qazilmalardan alohida turdag'i mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlari;

- tabiiy gaz bo'yicha qo'shimcha foya solig'inining to'lovchilari bo'lib tabiiy gazni eksportga sotadigan, qonun bujjatlariga muvofiq soliqqa tortish obyekti yuzaga keladigan kichik biznes subyektlari (mahsulotni taqsimlash shartnomasi doirasida faoliyatni amalga oshiruvchi operatorlar va investorlar bundan mustasno) hiosoblanadi.

Mahsulotni taqsimlash shartnomasi bo'yicha faoliyat yurituvchi yer qa'ridan foydalauvchilar qo'shimcha foya soligi to'lovchilari hisoblanmaydilar.

Qo'shimcha foya solig'inining soliqqa tortish obyekti ushbu soliq to'lovchisining hisobot davridagi daromadining bir qismidir.

Soliqqa tortish bazasi bo'lib qonunchilik tomonidan belgilangan hisob narxi bilan sotuv narxi o'ttasidagi farq hisoblanadi.

Qo'shimcha foyda solig'i bo'lingandan keyin ortib qolgan qismini to'laligicha maxsus ochilgan investitsiya hisob raqamiga o'tkazib yuboradilar.

Ushbu investitsiya hisob raqamiga tushgan mablag'lar faqatgina O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirliklari bian kelishilgan holda belgilangan tartibda amalga oshirishga ruxsat berilgan investitsiya loyihamarini moliyalashga, asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlash uchun jaib etilgan investitsiya loyihamarini amalga oshirish uchun berilgan kreditlarga xizmat ko'rsatishga sarflanishi mumkin.

Qo'shimcha foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi bilan kelishilgan holda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Qo'shimcha foyda solig'i to'langandan so'ng qo'shimcha foydaning ular ixtiyorida qoladigan qismini to'liq hajmda maxsus ochiladigan investitsiya hisobvaraqlariga o'tkaziladi. Ko'rsatilgan investitsiya hisobvaraqlaridan mablag'lar faqat O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va Moliya vazirligi bilan kelishilgan holda belgilangan tartibda sotish uchun ma'qullangan investitsiya loyihamarini moliyalash, investitsiya loyihamarini amalga oshirishga jaib etilgan kreditlarga xizmat ko'rsatish, shuningdek, asosiy ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta jihozlashga sarflanadi.

Qo'shimcha foyda soligi stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan indeksatsiyalanadi va tasdiqlanadi (9-jadval).

9-jadval

**Qo'shimcha foyda solig'i stavkalari<sup>20</sup>**

Mahsulot nomi	Soliqqa tortish bazasi miqdori (QQS va aksiz solig'isiz)	Soliq stavkasi
Katodli mis	1 tonnasining so'mli ekvivalentdagi «Qirqib olish» narxidan 4 200 AQSH dollaridan ko'p bo'lsa	50 foiz
Tabiiy gaz	1000 kub.m.ning so'mli ekvivalentdagi «Qirqib olish» narxidan 160 AQSH dollaridan ko'p bo'lsa	
Polietilen granulalar	1 tonnasining narxi 1200000 AQSH dollaridan ko'p bo'lsa	50 foiz
Sement	1 tonnasining narxi 95000 AQSH dollaridan ko'p bo'lsa	

<sup>20</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'sratichilari proqnozi va davlat budjeti parametrlari" davlet dasturi to'g'risida"gi Qarori.

Klinker	1 tonnasining narxi 80000 AQSH dollaridan ko'p bo'lsa
---------	---

### 3. Bonuslar

Bonus soliq to'lovchi tomonidan bir marta to'lanadigan to'lovdir.

Davlat boshqaruvi organlari bonus to'lamaydilar. Bonuslar 2 xil bo'ladi: imzoli va tijoratbop topilma bonusi.

Imzoli bonus yuridik yoki jismoniy shaxslar O'zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalarni qidirish, tekshirish va qazib chiqarish huquqi uchun tegishli litsenziya asosida to'laydigan bir martalik qat'iy belgilangan to'lov hisoblanadi. Imzoli bonus stavkalari eng kam ish haqiga nisbatan karralarda o'lchanadi va uning miqyosi qidirilayotgan, tekshirilayotgan foydali qazilmalarning turiga qarab farqlanadi. Masalan, imzoli bonusning eng yuqori stavkasi oltin va uglevodorodlarni qidirish, tekshirish huquqi uchun, eng past stavka esa rudasiz foydali qazilma konlarini qidirish, tekshirish huquqi uchun belgilab qo'yilgan (10-jadval).

10-jadval

#### Imzoli bonus stavkalari, minimal oylik ish haqiga nisbatan karralarda<sup>21</sup>

No	Foydali qazilmalarni tekshirish va qidirish huquqi	Stavka
1.	Uglevodorod konlarini qidirish va tekshirish huquqi	10000
2.	Oltin qidirish va tekshirish huquqi	10000
3.	Qimmatbaho va noyob metallarni qidirish va tekshirish huquqi	1000
4.	2-3 banddagidan tashqari rudali foydali qazilmalarni tekshirish va qidirish huquqi	500
5.	Rudasiz foydali qazilmalarni tekshirish va qidirish huquqi	100

Imzoli bonus litsenziya olingan kundan 30 sutkadan oshirmay budgetga to'lanadi va bu haqda soliq organiga yozma ravishda xabar beriladi.

Tijoratbop topilma bonusi tegishli litsenziyada ko'rsatilgan yer maydonida har bir topilgan tijorat konidan va shu jumladan ilgari belgilangan qazib olinadigan zaxiralarni ko'paytirish imkonini beradigan qo'shimcha tekshirish jarayonida topilgan foydali qazilmalar konidan to'lanadigan to'lov hisoblanadi.

Kelajakda qazib olinishi ko'zda tutilmagan konlarni tekshirilganda tijorat bonusi to'lanmaydi.

<sup>21</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdaq 1675-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

Tijoratbop topilma bonusining soliqqa tortish obyekti bo'lib vakolatli davlat organi tomonidan tasdiqlangan foydali qazilmalarning kondan qazib olingen miqdori xizmat qiladi.

Kondan qazib olingen foydali qazilmalarning bahosi tijoratbop topilma bonusining soliqqa tortish bazasi bo'lib xizmat qiladi va u 0,1 foizli stavka bilan hisoblanadi<sup>22</sup>.

Agar tijoratbop topilma bonusining summasi yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliqning bir yillik summasidan ko'p bolsa, Moliya vazirligi tomonidan bonus to'lashni kechiktirishga ruxsat berilishi mumkin.

Qazib olingen foydali qazilmalarning bahosi vakolatli davlat organi tomonidan aniqlangan axborot manbalarida ko'rsatilgan xalqaro birjada belgilangan narxlarda hisoblab chiqariladi. Agar narxlар xalqaro birjada yoq bo'lsa qazib olingen foydali qazilmalarning bahosi vakolatli davlat organi tomonidan aniqlanadi.

Tijoratbop topilma bonusi soliqqa tortish bazasi va belgilangan bonus stavkasidan kelib chiqib hisoblanadi. Tijoratbop topilma bonusi hisobi soliq to'lovchi tomonidan vakolatli davlat organi tomonidan foydali qazilmalarning zaxirasi tasdiqlangandan keyin 25 kundan kechiktirmasdan soliq inspeksiyasiga topshirilisi lozim.

Tijoratbop topilma bonusi vakolatli davlat organi tomonidan foydali qazilmalarning zaxirasi tasdiqlangandan keyin 90 kundan kechiktirmasdan to'lanishi lozim.

#### **4.1.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq**

*Kalit so'zlar: soliq, soliqqa tortish, suv, suv resurslari, obyekt, baza, stavka, kichik biznes, imtiyoz.*

**Soliq to'lovchilar.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar O'zbekiston Respublikasi hududida tadbirkorlik maqsadida suvdan foydalanuvchi kichik biznes subyektlaridir.

Amalda foydalanilgan suv hajmi soliqqa tortish bazasidir.

Yer osti va yer usti manbalaridan ishlab chiqarish va texnikaviy maqsadlarda foydalanishga olingen suv resurslari hajmi iste'mol xarakteri va maqsadlaridan qat'i nazar soliqqa tortiladi. O'z faoliyatlarida suvdan foydalanuvchi kichik biznes subyektlari suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilardir. Aholi punktlarining suv ta'minoti uchun suv yetkazib beruvchi kichik biznes subyektlari o'z faoliyatlarida foydalanilgan suv uchungina soliq to'lovchilar hisoblanadi.

Suvdan qishloq xo'jalik ekinlari va ko'chatlarini sug'orish uchun foydalaniladigan yordamchi xo'jaliklarga ega kichik biznes subyektlari, shuningdek, ilmiy tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining o'quv - tajriba xo'jaliklari ham suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining kelasi yilgi asosiy

<sup>22</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi Qarori bilan belgilab beriladi (11-jadval).

11-jadval

**Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari,**  
**1 kub.m uchun so'mlarda**

№	Ko'rsatkichlar	Yer osti	Yer osti	Yer osti	Yer osti
		manbasi	manbasi	manbasi	manbasi
		2011- yil	2012-yil	2011 - yil	2012-yil
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2,3,4 bandlardagidan tashqari)	29,8	35,8	37,9	45,5
2.	Kommunal xizmat ko'rsatish korxonalari	16,4	19,7	12,8	25,4
3.	Elektrostansiyalar	8,6	10,3	21,2	15,4
4.	Yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari, dehqon xo'jaliklari hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshish jarayonida suvdan foydalanuvchilar	1,6	1,9	1,8	2,2

Jadvaldan ko'rinish turibdiki, O'zbekiston Respublikasi hududida barcha resurs soliqlari kabi suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkalari yil sayin o'sib bormoqda.

**Soliqqa tortish obyekti.** Yer osti va yer usti manbalaridan foydalanishga olingan suv resurslari soliqqa tortish obyektiidir.

**Soliqdan imtiyozlar.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan quyidagilar ozod qilinadi:

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi hamda «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulki bo'lgan shtatdagи islovchilarning yarmidan kam bo'lmagan qismini nogironlar, 1941-1945 - yil urushi va mehnat faxriylari tashkil etadigan korxonalar (savdo, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan tashqari);

- suv uchun budjetga soliq o'tkazgan yuridik shaxsdan suv olgan iste'molchilar;

- birlamchi foydalanilgan suv uchun to'lov amalga oshirilgan suvdan ikkilamchi foydalanuvchi suv iste'molchilar;

- ixtiyoriy tugatilayotgan kichik biznes subyektlari, ularni ro'yxatdan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran. Ixtiyoriy tugatish qonun hujjatlariда belgilangan muddatlarda tugallanmagan yoki tugatish tartib-taomili to'xtatilgan va faoliyat qaytadan boshlangan taqdirda, ushbu imtiyoz qo'llanilmaydi hamda soliq summasi

imtiyoz qo'llanilgan butun davr uchun to'liq miqdorda undiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni hisoblab chiqarishda soliq solinadigan baza quyidagi hajmlarga kamaytiriladi:

- sog'liqni saqlash muassasalarida davolash maqsadida foydalanimadigan yer osti mineral suvlari hajmiga (sotiladigan suv hajmi bundan mustasno);

- dori vositalarini tayyorlash uchun foydalanimadigan suv hajmiga;

- atrof-muhitga zararli ta'sir ko'rsatishining oldini olish maqsadida chiqazib olinadigan yer osti suvlari hajmiga, ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniman suv hajmi bundan mustasno;

- shaxtdan suvni qochirish uchun, foydali qazilmalarni qazib olish vaqtida chiqazib olingan va qatlardagi bosimni saqlab turish uchun yer qa'riga qaytarib quyiladigan yer osti suvlari hajmiga, bundan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniman suv hajmi mustasno;

- qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan sho'rlangan yerlarni tuyvish uchun foydalanimadigan suv hajmiga.

**Soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.** Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lovchilar tomonidan belgilangan stavkalar va amalda foydalaniman soliqqa tortiladigan suv hajmidan kelib chiqib hisoblanadi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq hisob-kitobi soliq inspeksiyasiga ortib boruvchi yakun bilan suv resurslaridan foydalanganlik uchun to'lanadigan soliqning umumiyligi summasi yilning bir choragida eng kam ish haqining 50 baravaridan kamni tashkil etadigan kichik biznes subyektlari tomonidan yilning har choragida, yilning hisobot choragidan yilning har choragida keying oyning 25 kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda topshiriladi.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq to'lash to'g'risidagi to'lov xabarnomasi dehqon xo'jaliklariga soliq inspeksiysi tomonidan hisobot davridan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay topshiriladi.

Soliq to'lovchilar joriy yilning 15-yanvariga qadar soliq inspeksiyasiga soliqni belgilangan limitdan kelib chiqib har chorakda to'lashlari to'g'risida bildirish yuboradilar.

Issiq suv va bug' uzatuvchi korxonalar suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqchilar tomonidan yuzadagi va yer osti manbalaridan ishlab chiqarish va texnik ehtiyojlar uchun foydalaniman suv resurslari hajmi uchun to'laydilar.

#### **4.2. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan mahalliy soliqlar va yig'imlar**

**Kalit so'zlar:** mahalliy, yer solig'i, mol-mulk solig'i, obyekt, baza, imtiyoz, yig'im, kichik biznes subyektlari.

Mahalliy budjetga kelib tushadigan soliqlar va yig'imlar mahalliy soliqlar va yig'imlar guruhiiga kiradi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq umumbelgilangan tartibda ishlovchi kichik biznes subyektlari quyidagi mahalliy soliqlar va yig'imirni to'laydilar:

- mol-mulk solig'i;

- yer solig'i;

- yagona soliq to'lovi;
- alohida tovarlar (xizmat, ishlar) bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im.

Yuqorida keltirilgan mol-mulk va yer solig'idan tashqari mahalliy soliqlarni kiritish Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimiyat organlari tomonidan amalga oshiriladi.

#### **4.2.1. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan mol-mulk solig'i**

**Kalit so'zlar:** mahalliy, mol-mulk solig'i, obyekt, baza, imtiyoz, yig'im, kichik biznes subyektlari.

##### **Mol-mulk solig'ini joriy etishdan maqsad:**

- kichik biznes subyektlari o'zlarining xo'jalik faoliyatini yuritishda ortiqcha va foydalanimayotgan mol-mulkini sotishga qiziqishini uyg'otish;
- kichik biznes subyektlari balansidagi mol-mulkdan samarali foydalanishni rag'batlantrish.

Mol-mulk solig'i mavjud ishlab chiqarishni ekstensiv kengaytirishni jilovlash vazifalarini hal qilishga ham samarali ta'sir qiladi.

**Soliq to'lovchilar.** Soliq solinadigan mol-mulkka ega bo'lgan kichik biznes subyektlari soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Soliqqa tortish maqsadida kichik biznes subyektlari deganda mulkida, xo'jalik yurituvida yoki operativ boshqaruvida mol-mulkka ega bo'lgan va o'z majburiyatlar bo'yicha ana shu mol-mulki bilan javob beruvchi, mustaqil balansga va hisob raqamiga ega bo'lgan har xil turdag'i kichik biznes subyektlari tushuniladi.

Quyidagi kichik biznes subyektlari mol-mulk solig'i to'lovchilar bo'lmaydilar:

- notijorat tashkilotlar;
- yagona soliq to'lovi to'lovchilar.

O'zbekiston Respublikasi hududida kichik biznes subyektlari mol-mulk solig'i stavkalari ko'p yillardan beri o'zgarmay kelmoqda (12-jadval).

#### **12-jadval**

#### **Kichik biznes subyektlaridan olinadigan mol-mulk solig'i stavkalari soliqqa tortiladigan bazaga nisbatan foizlarda<sup>23</sup>**

No	To'lovchilar	Stavka
1.	Kichik biznes subyektlari	3,5
2.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar (ishlar, xizmatlar) eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan eksportchi korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida: <ul style="list-style-type: none"> <li>- 15 dan 30 foizgachani tashkil etsa</li> <li>- 30 va undan ko'pni tashkil etsa</li> </ul>	30%ga pasayadi 50%ga pasayadi

**Soliqqa tortish obyekti.** Quyidagi mol-mulk soliqqa tortish obyekti hisoblanadi:

<sup>23</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrda qilingan "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy mukroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari " davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

- asosiy vositalar;
- nomoddiy aktivlar;
- tugallanmagan qurilish obyektlari;
- me'yoriy muddatlarda tugallanmagan qurilish obyektlari va belgilangan muddatlarda ishga tushirilmagan asbob-uskunalarining o'rtacha yillik qiymati.

**Soliq stavkalari.** Kichik biznes subyektlari mol-mulk solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining kelasi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi Qarori bilan belgilab beriladi.

**Soliqdan imtiyozlar.** Kichik biznes subyektlari mol-mulk solig'ini hisoblab chiqarilayotganda soliqqa tortish bazasi quyidagilarning qiymatiga kamaytiriladi:

- uy-joy kommunal xo'jaligi obyektlarining;

- madaniyat va san'at, ta'lif, sog'liqni saqlash, sport, ijtimoiy ta'minot sohasiga kiradigan ijtimoiy-madaniy soha obyektlarining;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va saqlash uchun foydalaniladigan qishloq xo'jaligi korxonalari balansida bo'lgan mol-mulkning;

- sug'orish va kollektor-drenaj tarmoqlari obyektlarining;

- aloqa yo'ldoshlarining;

- kredit hisobidan olingan asbob-uskunaning, uni foydalanishga topshirilgan paytdan boshlab besh yilga, lekin kreditni uzish uchun belgilanganidan ko'p bo'lmagan muddatga;

- tabiatni muhofaza qilish va sanitariya-tozalash maqsadlari, yong'in xavfsizligi uchun foydalaniladigan obyektlarining;

- umumiy foydalanishdagi temir yo'llari va avtomobil yo'llari, magistral quvurlar, aloqa va elektr uzatish liniyalarining, shuningdek, ushbu obyektlarning ajralmas texnologik qismi bo'lgan inshootlarning;

- konservatsiya qilinishi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori qabul qilingan asosiy ishlab chiqarish fondlarining;

- lizingga olingan mol-mulkning, lizing shartnomasi amal qiladigan muddatga;

- soliq to'lovchining balansida bo'lgan hamda tadbirkorlik faoliyatida foydalanilmayotgan, fuqaro muhofazasi va safarbarlik ahamiyatiga molik obyektlarning;

- tuzilgan shartnomalarga muvofiq kichik biznes subyektining buyurtmasi bo'yicha ishlar bajarish uchun kasanachilarga bepul foydalanishga berilgan asbob-uskunalarining;

- ishlab chiqarishga yangi joriy etilgan yangi texnologik jihozlarning, besh yil muddatga.

Kichik biznes subyektining mol-mulk soligidan quyidagilar ozod etiladi:

- sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ijtimoiy ta'minot, xalq ta'limi, madaniyat va san'at tashkilotlari;

- uy-joy kommunal xo'jaligi va ixtiyoriy tugatilayotgan boshqa umumfuqaroviylar ahamiyatiga molik shahar xo'jaligi korxonalari;

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi, «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulki bo'lgan shtatdagi ishlovchilarning yarnidan kam bo'lmanan qismini nogironlar, 1941-1945 - yil urush va mehnat faxriylari tashkil etadigan korxonalar (savdo, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan tashqari);

- yangi tashkil etilgan korxonalar-davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;

- ixtiyoriy tugatilayotgan kichik biznes subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

**Soliqni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.** Kichik biznes subyektlarining mol-mulkiga soliqni hisoblab chiqarish soliq to'lovchi hisoblab chiqarilgan soliqqa tortish bazasidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib mustaqil ravishda amalga oshiradilar.

Kichik biznes subyektlari joriy to'lovlamni yilning har choragida to'laydilar. Joriy to'lovlar summasi tegishli yil uchun mol-mulkning o'rtacha yillik qoldiq qiymatidan va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan kichik biznes subyektlarining mol-mulkiga solinadigan yillik soliq summasining to'rtadan bir qismi miqdorida belgilanadi.

Joriy to'lovlar summasini hisoblab chiqarish uchun soliq to'lovchi soliq inspeksiyasiga belgilangan shakldagi ma'lumotnomani joriy yilning 20-yanvarigacha taqdim etadi.

Budjetga joriy to'lovlanmi to'lash har chorak oxirgi oyining 25-kunidan kechiktirmay amalga oshiriladi. Kichik biznes subyektlarining mol-mulkiga soliqning hisob-kitobi soliq inspeksiyasiga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi. To'lanishi lozim bo'lgan kichik biznes subyektlarining mol-mulkiga soliq summasi hisob-kitoblarni topshirish uchun belgilangan kundan kechiktirmay budjetga o'tkaziladi. Kichik biznes subyektlarining mol-mulkiga soliq norezidentlar tomonidan yilda bir marta soliq hisoboti davridan keyingi yilning 15-fevralidan kechiktirmay to'lanishi lozim.

#### **4.2.2. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan yer solig'i**

**Kalit so'zlar:** mahalliy, yer solig'i obyekt, baza, imtiyoz, yig'im, kichik biznes subyektlari.

O'zbekiston Respublikasida yer solig'i kadastrli usulda undiriladi. Bunda yerning unumdonligi (boniteti) hisobga olingan jadval shaklidagi yer solig'inining stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan har yili ko'rilib tasdiqlanadi.

Shaharlar va shahar qo'rg'onlarida yer solig'i stavkalarini ishlab chiqishda ular shahar ayrim tumanlari yerlari hamda infratuzilmasini iqtisodiy baholab kompleks tarzda baholash asos qilib olingen. Shahar hududining qimmati markazdan chekka joylarga hududning infratuzilma bilan ta'minlanganligi va boshqa omillar ta'siri tufayli pasayib boradi. Shu sababli yer solig'i stavkalarini tabaqlashtirish uchun ular

hududlarga bo'linadi.

**Soliq to'lovchilar.** Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yer maydonlariga ega bo'lgan kichik biznes subyektlari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi norezidentlari yer solig'i to'lovchilardir. Yer ijaraga berilganda yer solig'i to'lovchisi ijaraga beruvchi bo'ladi. Quyidagilar yer solig'i to'lovchisi bo'lmaydilar:

- notijorat tashkilotlar;
- yagona soliq to'lovi to'lovchilar.

**Soliqqa tortish obyekti.** Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida kichik biznes subyektlarida bo'lgan yer maydonlari soliqqa tortish obyekti bo'lib xizmat qiladi.

**Soliqqa tortish bazasi.** Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida kichik biznes subyektda bo'lgan yer maydonining umumuiy hajmi soliqqa tortish bazasi bo'lib xizmat qiladi.

**Soliqdan imtiyozlar.** Kichik biznes subyektidan undiriladigan yer solig'idan quyidagilar ozod qilinadi:

- madaniyat, ta'lim, sog'liqni saqlash, aholini ijtimoiy muhofaza qilish tashkilotlari;
- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy» jamg'armasi, «O'zbekiston chernobilchilari» assotsiatsiyasi mulki bo'lgan shtatdagagi ishlovchilarning yarmidan kam bo'lmagan qismini nogironlar, 1941-1945- yil urush va mehnat faxriylari tashkil etadigan korxonalar (savdo, ta'minot-sotish va tayyorlov faoliyati bilan shug'ullanuvchilardan tashqari);
- yangi tashkil etilgan dehqon xo'jaliklari - davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran ikki yil mobaynida;
- ixtiyoriy tugatilayotgan kichik biznes subyektini davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organ ixtiyoriy tugatish to'g'risida qabul qilingan qaror haqida xabardor qilingan kundan e'tiboran.

Kichik biznes subyektidan undiriladigan yer solig'ini hisoblash va budjetga to'lash tartibi. Yer solig'i soliq davrining 1-yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqiladi va soliq inspeksiyasiga joriy yilning 15-fevraligacha taqdim etiladi. Yer solig'ini hisoblab chiqarish soliqqa tortish bazasidan va belgilangan stavkadan kelib chiqib amalga oshiriladi.

Soliq davrida qishloq xo'jalik ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona yer solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jalik korxonalari yer solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini soliq inspeksiyasiga joriy yilning 1-dekabrigacha taqdim etadir.

Yer solig'ini to'lash kichik biznes subyektlari tomonidan yilning har choragida yil choragi ikkinchi oyining 15-kunigacha amalga oshiriladi. Qishloq xo'jalik korxonalari tomonidan yer solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1-iyuligacha-yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1-sentabrigacha-yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1-dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

#### **4.2.3. Alohida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im**

*Kalit so'zlar: mahalliy, obyekt, baza, imtiyoz, yig'im, kichik biznes subyektlar, yig'im, alohida mollar.*

2006 - yildan boshlab alohida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im faqat alkogolli mahsulotlar hamda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar uchungina ko'zda tutilgan. Ushbu yig'im to'lovchilari bo'lib O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan tartibda savdo-sotiqni amalga oshiradigan kichik biznes subyektlari hisoblanadi.

Alkogolli mahsulotlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im eng kam oylik ish haqining 5 baravariga teng stavka bo'yicha to'lanadi. Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlardan yasalgan buyumlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im eng kam oylik ish haqining 3,5 baravariga teng stavka bo'yicha to'lanadi.

Alohida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan savdo shaxobchalari, magazinlar, umumi ovqatlanish korxonalari, savdo shaxobchalari va rastalar, kioskalar, savdo peshtaxtalari, dorixonalar va boshqa obyektlar davlat hokimiyati organlari tomonidan maxsus ajratilgan joyda chakana savdo qilishlari mumkin.

Alohida tovarlar (ishlar, xizmatlar) bilan savdo qilish huquqini tasdiqlovchi sertifikat 1 oydan 12 oygacha beriladi.

#### **4.3. Kichik biznesni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi**

*Kalit so'zlar: soliq, soddalashtirilgan soliq, obyekt, baza, imtiyoz, kichik biznes subyektlari, umumbelgilangan tartibi, yagona soliq to'lovi.*

##### **Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi**

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi mamlakatimizda tasodifan paydo bo'lib qolgani yo'q. Islohotlarning dastlabki yillarida O'zbekiston iqtisodiyotida paydo bo'lgan tub tarkibiy o'zgarishlar va aholining turmush darajasini oshirishga qaratilgan tadbirlar amalga oshirilishi natijasida xarajatlar miyosi oshib ketdi, bu esa o'z navbatida xarajatlarni qoplashning asosiy manbai bo'lgan soliq tushumlarining to'xtovsiz oshib borishiga olib keldi. Yuqoridagi salbiy holatlarning oldini olish maqsadida davlatimiz soliq tushumlarini ko'paytirishning soliq stavkalarini oshirish yo'llini emas, balki eng samarali bo'lgan – soliqqa tortish bazasini kengaytirish yo'llini tanlab oldi. Buning uchun soliqqa tortish bazasini kengaytirishning kam xarajat talab qiladigan va tez muddatlarda amalga oshirish imkonini beradigan kichik biznesni ustuvor sur'atlar bilan rivojlantirish orqali amalga oshirish yo'li tanlab olindi. Kichik biznesni rivojlantirishning samaradorligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov «Bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik o'zining iqtisodiyotimizdagi o'ta muhim va salmoqli hissasi, roli va ta'siri, sodda qilib aytganda, boshqa hech bir soha va yo'nalish o'mini bosolmaydigan katta ahamiyati bilan davlat va jamiyatimiz rivojida alohida o'rinni

egallaydi»<sup>24</sup>, - deb ko'rsatib o'tgan va kichik biznesni jadal sur'atlar bilan rivojlantirish zarurligini ustuvor vazifa qilib belgilab bergen edi. Bu muhim vazifani bajarish uchun kichik biznes subyektlariga mos keladigan soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish obyektiv zaruratga aylanib qolgan edi, chunki:

- ko'pchilik kichik biznes subyektlarining oladigan daromadlari past bo'lgani uchun ular barcha umumbelgilangan soliqlarni bazo'r to'lashlari mumkin edi;

- mamlakatimizda bozor iqtisodiyotining shakllanish sharoitida davlatning ustuvor vazifalari qatoriga raqobat muhitini barpo etish qo'yilgan edi. O'z navbatida sog'lom raqobat bo'lishi uchun bozorda bir paytning o'zida ko'plab mustaqil tashkilotlar va shaxsiy korxonalar qatnashishi lozim;

- soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida bozorning kichik qatnashchilarining soliqlarni hisoblash, hisob yuritish va hisobotlar tuzish hamda ularni soliq idoralari oldida himoya qilishga ketadigan solishtirma xarajatlarni minimallashtirishga imkonlari yo'q edi, chunki ularning yetarli miqdorda malakali xodimlarni ishlatishga imkoniyatlari yo'q edi;

- o'z navbatida soliq idoralari ham soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida faoliyat yurituvchi ko'plab mayda soliq to'lovchilar ustidan soliq ma'muriyatchiliginamalga oshirish bo'yicha ulkan xarajatlarga yo'l qo'yar edilar.

Shunday qilib, kichik biznesai ustuvor sur'atlar bilan rivojlantirish vazifasi qo'yilgan bir sharoitda, kichik biznes subyektlariga mos keladigan soliqqa tortish tartibini ishlab chiqish obyektiv zaruratga aylanib qolgan edi.

Bu muammoni hal qilish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov «Iqtisodiyotni erkinlashtirishda, birinchi navbatda, soliq yukini kamaytirish, soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va unifikatsiya qilish masalalari muhim o'rinn tutadi»<sup>25</sup> - deb ko'rsatib o'tgan edi.

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, kichik biznesni ustuvor sur'atlar bilan rivojlantirishni rag'batlantirish va samaradorligini oshirish maqsadida, uning soliqqa tortish mexanizmni soddalashtirish, soliq turlarining, soliq hisobi shakllari va hisobotlar sonini kamaytirish, soliq to'lovchilarga tushunishlarini osonlashtirish va soliqlarni to'lash muddatlarini bir oy yoki undan kamroq muddat (dekada)dan yil choragigacha uzaytirish va pirovard natijada soliq yukini optimallashtirish variantlarini izlab topish maqsadlarida, mamlakatimiz soliq tizimiga yangi konstitutsional o'zgarish - soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi ishlab chiqilib, soliq amaliyotiga joriy etildi, ya'ni kichik biznes subyektlarida xodimlar soni chegaralangan bo'lgani uchun ularga kam mehnat, kam vaqt va kamroq moddiy xarajatlar sarflash imkonini beradigan ixchamlashtirilgan, soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi ishlab chiqilgan edi.

Bu tartibda faoliyat yurituvchi kichik biznes subyektlari quyidagi soliqlar va majburiy to'lovlar:

- yuridik shaxslar foyda solig'i (24 varaq);

<sup>24</sup> Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom ettirish – taraqqiyotimizning muhim omilidir. //Xalq so'zi. 2010- yil 8- dekabr.

<sup>25</sup> Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash – barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. // Xalq so'zi, 2008- yil 9- fevral.

- qo'shilgan qiymat solig'i (15 varaq);
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (3 varaq);
- mol-mulk solig'i (13 varaq);
- yer solig'i ( 8 varaq) va budjetdan tashqari:
- pensiya jamg'armasi (2 varaq);
- respublika yo'l jamg'armasi (2 varaq);
- ta'lif muassasalarini rekonstruksiya qilish, mukammal ta'mirlash va jihozlash jamg'armasi (2 varaq)ga majburiy ajratmalar o'miga faqat bitta yagona soliq to'lovini (11-varaq) ni to'laydilar, ya'ni soliq inspeksiyasiga topshiriladigan hisobotlarning umumiy miqdori 69 varaqdan 11 varaqqacha kamaydi va hisobotlarni soliq inspeksiyasiga topshirish muddatlari yiliga 12 martadan 4 martagacha kamaydi. Oqibatda yagona soliq to'lovini hisoblash soddalashdi, osonlashdi va xato qilmaslik imkoniyati  $8 \times (12-4) = 64$  martagacha oshdi.

Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibida qo'llaniladigan soliq turlari. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida «soliq solishning soddalashtirilgan tartibi – soliq solishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilangan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalari qo'llanilishini ko'zda tutuvchi alohida tartibidir va «yagona soliq to'lovi»ni, «yagona yer solig'i»ni hamda tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha «qat'iy belgilangan soliq»ni hisoblab chiqarish hamda to'lashning maxsus qoidalari qo'llanilishini, shuningdek, mazkur soliqlar bo'yicha soliq hisobi va hisoboti taqdim etilishini nazarda tutadi»<sup>26</sup> – deb keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazilgan yuridik shaxslarning eng ko'p qismi «yagona soliq to'lovi» to'lovchilar bo'lib, ular barcha tarmoqlarning kichik biznes subyektlarini va undan tashqari miqyosidan qat'i nazar savdo va umumiy ovqatlanish korxonalarini hamda lotoreyalar tashkil qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshirish doirasidagi yuridik shaxslarni o'z ichiga oladilar.

Yagona yer solig'i to'lovchilarning miqyosi ancha tor bo'lib, bu soliq to'lovchilari qatoriga faqatgina qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar va qishloq xo'jaligi yo'nalishitagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lif muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari kiradi.

Tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha «qat'iy belgilangan soliq»ni to'lovchilar qatoriga faoliyatining ayrim turlarini tavsiflovchi fizik ko'rsatkichlardan kelib chiqqan holda soliq solinadigan faoliyatining ayrim turlarini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlar kiradi.

Yagona soliq to'lovi» to'lovchilar davlatning budjetdan tashqari maxsus jamg'armalariga ajratmalar to'lashdan ham ozod etilgan, ammo yagona yer solig'i to'lovchilari – ozod etilmaganlar.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 351- moddasiga muvofiq mikrofirma va kichik korxonalarga soliqqa tortishning xohlagan tartibini tanlash huquqi berilgan, ya'ni ular xohlasalar yagona soliq to'lovini to'lashni ko'zda tutuvchi

<sup>26</sup> Soliqqa oid qonun hujjatleri. 2008. -T.: NORMA, 2008. 238, 239 - b.

soddalashtirilgan tartibini, xohlasalar barcha umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishlari mumkin.

Yagona soliq to'lovchisi bo'lgan kichik biznes subyektlari barcha yuridik shaxslar kabi quyidagi so'liq va majburiy to'lovlarini to'lashni davom ettiradilar:

- to'lov manbayida ushlab qolinadigan foyda solig'i;
- bojxona to'lovlar;
- bajarilgan ishlar va xizmatlar uchun qo'shilgan qlymat solig'i;
- aksiz mahsuloti ishlab chiqarishdag'i aksiz solig'i;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar;
- yagona ijtimoiy to'lov;
- alohida tovarlar turlari bilan chakana savdo qilish va alohida xizmat ko'rsatish huquqi uchun yig'im;
- davlat boji;
- avtotransport vositalarini sotib olish va O'zbekistonga vaqtinchalik olib kirish uchun Respublika yo'l jamg'armasiga yig'im.

Shunday qilib, kichik biznes subyektlarini yagona soliq to'loviga o'tkazish uning samaradorlik darajasining yanada ko'tarilishiga, hujjatlar aylanishini kamaytirishga (6 martagacha), hisob va hisobot shakllarini soddalashtirish va hajmini qisqartirishga, topshirladigan hisobotlar sonini kamaytirishga olib kelar ekan.

**Kichik biznes subyektlarini soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibiga o'tkazish.** Mikrofirma va kichik korxonalar o'zlarini xohlagan soliqqa tortish tartibini, ya'ni yagona soliq to'lovini to'lashni ko'zda tutuvchi soddalashtirilgan yoki umumbelgilangan tartibini tanlash huquqi berilgan.

Faoliyat yuritib turgan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishlari uchun kelgusi hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin, yangi tashkil etilayotganlari davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng esa kamida o'n besh kun oldin O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yozma ravishda ariza berishi lozim.

Agar mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan

ixtiyoriy ravishda bosh tortsalar, hisobot davri tugagandan keyin o'n kundan kechiktirmay o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yozma ravishda ariza beradi va keyingi hisobot davridan hisobot davridan boshlab soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tadi.

Hisobot yili tugagach belgilangan ishlovchilar soni me'yoriga rioya eta olmay qolsalar, yagona soliq to'lovini to'lovchilar o'zi joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yozma ravishda yillik moliyaviy hisobot berish muddatidan kechiktirmay ariza beradi va keyingi hisobot yilidan soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibiga o'tadi.

Yagona soliq to'lovini to'lash huquqini yo'qotgan mikrofirma va kichik korxonalar, bu huquqni yo'qotgan yil uchun hisoblab chiqilgan umumbelgilangan soliqlar asosida yagona soliq to'lovini qaytadan hisoblab chiqadi.

Yagona soliq to'lovini qaytadan hisoblab chiqish uchun mikrofirma va kichik korxonalar o'zlarini joylashgan hududdagi davlat soliq idorasiga yillik yagona soliq hisobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay:

1. Umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob – kitoblar.

2. O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda umumbelgilangan soliqlarning hisoblab chiqarilgan summasi to'g'risidagi ma'lumotlarni topshiradi.

Agar umumbelgilangan soliqlarning hisoblab chiqarilgan summasi to'langan yagona soliq to'lovi summasidan ko'p chiqsa, ortiqcha summa budjetga o'tkazilishi lozim, kam chiqsa, budjet bilan hisob - kitoblar qilinmaydi.

Yagona soliq to'lovini qayta hisoblash tegishli mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni sotib olgan xaridorlar bilan qayta hisob - kitoblarsiz amalga oshiriladi. Agar hisob - kitoblar va ma'lumotlar topshiriladigan bo'lsa va muddatidan kechiktirilmay topshirilsa, moliyaviy jazo qo'llanilmaydi, agar kechikib topshirilsa, qonunchilikda belgilangan moliyaviy jazo qo'llaniladi.

Mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovini to'lashdan ixtiyoriy ravishda bosh tortgach, boshqa soliqqa tortish rejimiga hisobot yil choragi tamom bo'lishiga bir oy qolishidan kechiktirmay soliq inspeksiyasiga yozma xabar berib, faqat navbatdagi yil choragidan boshlab o'ta oladi.

Yagona soliq to'lovi to'lash tartibidan boshqa soliqqa tortish tartibiga o'tgan mikrofirma va kichik korxonalar yagona soliq to'lovi to'lash tartibiga kamida bir yildan keyingina barcha oldingi qarzlarini to'lab, yana qayta o'tish huquqiga ega bo'ladilar.

### **Soliq to'lovchilari va soliqqa tortish obyekti. O'zbekiston Respublikasi**

Soliq kodeksining 350- moddasiga muvofiq yagona soliq to'lovchisi bo'lib qonunchilik tomonidan belgilangan kriteriy (ishlovchilarning o'rtacha soni)ga muvofiq mikrofirmalar va kichik korxonalar hisoblanuvchilar xizmat qiladi. Bular qatoriga quyidagi kichik biznes subyektlari kirmaydi:

- aksizosti mahsuloti ishlab chiqaruvchi va yer qa'ridan foydalanganlik uchun solig'i to'lanadigan foydalni qazilmalar qazib oluvchilar;

- yagona yer solig'i va qat'iy belgilangan soliq to'lanadigan faoliyat yurituvchilar;

- mahsulotni taqsimlash to'g'risidagi kelishuvlar qatnashuvchilar.

Yagona soliq to'lovining soliqqa tortish obyekti bo'lib, yalpi tushum hisoblanadi. Soliqqa tortish maqsadida yalpi tushum tarkibiga quyidagilar kiradi:

1. Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ni sotishdan tushumdan qo'shilgan qiymat solig'in chiqarib tashlangan farq (qo'shilgan qiymat solig'in to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchisi uchun) kiradi.

1) Mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni sotishdan tushum:

- qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash - qurilish, pusko-naladka, loyihalash-tadqiqot va ilmiy-tekshirish tashkilotlari uchun qurilish, qurilish-montaj, ta'mirlash-qurilish, pusko-naladka, loyihalash-tadqiqot va ilmiy-tekshirish tashkilotlarining o'z kuchlari bilan bajargan ishlarni sotishdan tushum; - savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun – tovar aylanmasi;

- mulkini lizingga beruvchi yuridik shaxslar uchun – lizingdan foiz daromadi;
  - komissiya shartnomasi, topshiriqlar shartnomasii va boshqa shartnomalar bo'yicha vositachi yuridik shaxslar uchun – ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'langan pul summasi;
  - tayyorlov, ta'minot-sotish tashkilotlari uchun – sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish baholari orasidagi farq;
  - lotoreyalar tashkil qilish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun – bahosi ko'rsatilgan lotoreya chiptalarini tarqatishdan tushgan pul.
- 2) boshqa daromadlar.

Soliqqa tortish bazasi quyidagi lari chiqarib tashlangandan so'ng qolgan yalpi tushum miqdoriga teng bo'ladi:

- davlat qimmatli qog'ozlaridan olingen daromadni;
- manbaida soliqqa tortiladigan dividendlar va foizlardan olingen daromadni;
- to'lovchining ustav jamg'armasiga jo'natilgan dividendlar va foizlardan olingen daromadni;
- hisobot yilda topilgan o'tgan yillardan daromadini;
- qaytarib beriladigan ko'p foydalilaniladigan taraning bahosi (agar taraning bahosi oldin tovarlar, ishlar va xizmatlar sotishdan tushgan tushum tarkibiga ritilgan bo'lsa) ni;
- yetkazib beruvchilardan olingen chegirmalardan va asosiy vositalarni hisobdan chiqarishdan olingen boshqa daromadlarni.

Soliqqa tortish bazasi quyidagi kichik biznes subyektlari uchun kamaytiriladi:

- avtomobil yoqilg'i quyish shaxobchasi bo'yicha quyidagi summaga:
- 1) jismoniy shaxslardan avtotransport uchun benzin, dizel yoqilg'isi va gaz olgani uchun olinadigan soliq;

2) benzin, dizel yoqilg'isi va gazning chakana narxi bilan avtomobil yoqilg'i quyish shaxobchasining belgilangan chegarasidan ortiq bo'lgan sotib olish narxi orasidagi mahalliy budjetga o'tkazilishi lozim bo'lgan farq;

- lotoreyalar tashkil qilish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxslar uchun yutuq fondi summasi (tarqatilgan chiptalarga chiqqan yutuqlar umumiy summasidan ortiq bo'lmasligi lozim);

- brokerlik idoralari uchun – birjaga o'tkaziladigan kelishuv summasidan komission yig'im;

- komissiya shartnomasi va topshiriqlar shartnomasi bo'yicha vositachi yuridik shaxslar uchun – tovarlarni import qilishda to'langan bojxona to'lovleri.


Undan tashqari, ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlariga muvofiq hisoblangan soliqqa tortish bazasi – quyidagi larda yo'naltirilgan mablag'lar summasiga kamaytiriladi:

- yangi texnologik jihozlar sotib olishga (Soliqqa tortish bazasining 25 foizidan ko'p bo'lmasligi summaga. Soliqqa tortish bazasini kamaytirish yangi texnologik jihozlar ishga tushirilgan soliq davridan boshlab besh yil davomida amalga oshiriladi);

- o'z yosh xodimlariga ipoteka krediti bo'yicha sotib olingen uy-joy uchun to'lanadigan to'lovlar (soliqqa tortish bazasining 10 foizidan ko'p bo'lmasa summaga).

**Soliq stavkalari.** Kichik biznesning soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasining keyingi yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va davlat budjeti parametrlarini belgilash to'g'risidagi maxsus qaroriga muvofiq belgilanganadi va tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognosi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq 2011- yil 1-iyundan boshlab yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun shunday tartib joriy etilganki, unga muvofiq yagona soliq to'lovini belgilangan stavkalar bo'yicha, biroq eng oz miqdordan – soliq to'lovchilar egallab turgan yer maydonidan kelib chiqib hisoblanadigan yer solig'inining 3 baravaridan kam bo'lmasa miqdorda to'lanadi. Kichik biznesning yuqori samaradorligini e'tiborga olib, uni jadal sur'atlar bilan rivojlantirishni rag'batlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini doimiy takomillashtirib borish bilan bir qatorda, yagona soliq to'lovining stavkalarini surunkali ravishda pasaytirilib borilmoqda (4-rasm).



**4-rasm. O'zbekiston Respublikasida yagona soliq to'lovi stavkalarining dinamikasi, oldingi yilga nisbatan foizlarda.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 24- avgustdag'i 4364- sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq mamlakatimizning industriyashtirish darajasini oshirish sur'atlarini jadallashtirish maqsadida 2012 - yilning 1-yanvaridan boshlab sanoat sohasidagi kichik biznes subyektlari to'laydigan yagona soliq to'lovining stavkalarini o'rtacha 6 foizdan 5 foizga tushirish ko'zda tutilgan. Bu hol investitsiyalarni mamlakatimiz sanoatini rivojlantirish foydasiga qayta taqsimlashga qo'shimcha imkoniyat paydo qiladi.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, yagona soliq to'lovining o'rtacha stavkalasi 6 foiz bo'lgan holda, sanoatda 5 foizni, gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalarda 30 foizni tashkil etgan.

- nogironlarning jamoat birlashmalari, «Nuroniy jamg'armasi» va «O'zbekiston chernobilchilarini» assotsiatsiyasi mulkida bo'lgan mikrofirma va kichik korxonalarda ishlovlarning kamida 50 foizini nogironlar, urush va mehnat faxriylari tashkil etuvchi mikrofirma va kichik korxonalar (savdo, vositachilik, ta'minot-sotish, tayyorlov va lotoreyalar tashkil etish faoliyati bilan shug'ullanuvchi kichik biznes subyektlaridan tashqari) yagona soliq to'lovini to'lashdan to'liq ozod etiladilar.

### 13—jadval

#### Kichik biznes subyektlarining 2012- yil uchun yagona soliq to'lovining stavkalari, foizlarda<sup>27</sup>

Nº	Soliq to'lovchilar	Stavka
1.	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlari korxonalari, 2-7 bandlarda ko'rsatib o'tilganlari bundan mustasno	6
2.	Sanoat ishlab chiqarishi bilan shug'ullanuvchi korxonalar	5
3.	Kompyuter dasturiy mahsulotlarini ishlab chiqish va joriy etish (realizatsiyaning kamida 80 foizini tashkil etganda)	5
4.	Qishloq xo'jaligi korxonalari asosiy faoliyati bo'yicha	6
5.	Gastrol-konsert faoliyati bilan shug'ullanish uchun litsenziyasi bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslarni jalb etish yo'li bilan ommaviy tomosha tadbirlarini tashkil etishdan daromad oladigan korxonalar	30
6.	Tayyorlov va ta'minot-sotish tashkilotlari, brokerlik idoralari, vositachilik, topshiriq va shartnomalar bo'yicha vositachilik xizmatlari ko'rsatadigan korxonalar	33
7.	Qimmatli qog'ozlar bozorida brokerlik korxonalari	13
8.	Oziq- ovqat va nooziq-ovqat tovarlar bilan savdo qilish uchun statsionar savdo qilish joylarini ijaraga berishga ixtisoslashgan (ijaraga berishdan olinadigan daromad 60 %dan ijaraga berishga ko'p) korxonalar	30
9.	O'zi ishlab chiqargan tovarlar, ishlar, xizmatlar eksportining erkin almashtiriladigan valyutadagi hissasi quyidagi miqdorlarni tashkil etadigan korxonalar uchun sotishning umumiy hajmida :	
	15 dan 30 foizgachani	30 % pasayadi

<sup>27</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011- yil 30- dekabrdagi 1675- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

	30 va undan ortiq foizni	50 % pasayadi
10.	Maishiy xizmatlar sohasi korxonalar uchun plastik kartalarni qo'llagan holda haqi to'langani ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bo'yicha	10 % pasayadi

Yagona soliq to'loving stavkalari miqdoriga birqancha omillar ta'sir etadi. Masalan, yagona soliq to'loving stavkasi o'rtacha 6 foizni tashkil etgan holda, daromad olishning og'ir-yengilligiga qarab, ayrim soha kichik biznes subyektlari to'laydigan yagona soliq to'loving stavkalari o'rtacha stavka miqyosidan ancha farq qiladi.

**Soliqdan beriladigan imtiyozlar.** O'zbekiston Respublikasida kichik biznes subyektlari to'laydigan yagona soliq to'lovidan bir qator imtiyozlar berilgan:

- mamlakatimizning qishloq joylarida xizmat ko'rsatish sohasi sust rivojlanganini va shu soha korxonalarini barpo etish ko'p mablag' talab qilmasligini e'tiborga olib, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2006 - yil 17- aprelda 325- sonli «O'zbekiston Respublikasida 2006-2010-yillarda xizmat ko'rsatish va servis sohasini rivojlantirishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi Qaroriga muvofiq 2006 - yil 1-apreldan boshlab xizmat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari 3 yil muddatga yagona soliq to'lovidan ozod etilishi ko'zda tutilgan edi va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010 - yil 30- dekabrdagi 1675 - sonli «O'zbekiston Respublikasining 2012 - yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq bu imtiyozning amal qilish muddati 2014 - yilning 1-yanvarigacha uzaytirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 - yil 15 - maydagi 1112- sonli «Tadbirkorlik faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash va rivojlanirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Qaroriga muvofiq kichik korxona o'z uylarida ishlayotgan (kasanchilik bilan shug'ullanayotgan) fuqarolar bilan qonun hujjatlarida belgilangan xodimlar sonining cheklangan me'yordan ko'pi bilan 30 foiz oshgan miqdorda mehnat shartnomalari tuzganda, kichik korxonalar uchun nazarda tutilgan kafolatlar, imtiyozlar va preferensiyalar mazkur kichik korxona uchun saqlanib qolinishi belgilandi.

Jahonda davom etayotgan moliviyyi inqiroz sharoitida korxonalar, tashkilotlar va yakka tadbirkorlarni muhofazalashni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti bir qator farmon va qarorlar qabul qildi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2009 - yilning 26 - yanvarida qabul qilgan 1047 - sonli Qarori bilan 2014 - yilning 1-yanvarigacha:

- «Mevasabzavottayyorlovsavdo» ixtisoslashtirilgan kompaniyasi kichik korxonalar yagona soliq to'lovidan ozod ctilgan;
- go'sht va sut ishlab chiqarishga ixtisoslashtirgan kichik biznes subyektlari uchun asosiy faoliyatlar bo'yicha yagona soliq to'lovi stavkasi 50 foizga pasaytirilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2009 - yilning 28 - yanvarida qabul qilgan 1050 - sonli qarori bilan nooziq-ovqat iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishga

ixtisoslashgan kichik biznes subyektlari 2014 - yilning boshigacha yagona soliq to'lovi to'lashdan ozod etilgan;

- yagona soliq to'lovi tizimining samaradorligini e'tiborga olib, aholisi 100 ming va undan ko'p bo'lgan shaharlarda joylashgan kichik chakana savdo korxonalarining yagona soliq to'lovi stavkalari barcha chakana savdo korxonalariniki 2007 - yildagi 5 foizdan 2008 - yilda 4 foizga tushirildi, boshqa aholi punktlariniki 3 dan 2 foizga tushirildi va 2012 - yilda ham o'zgarmadi.

Yuqoridagilardan tashqari, yagona soliq to'lovi tizimida ishlashga huquqi bo'lgan kichik biznes subyektlarining bu tizimga o'tib ishlashga qiziqishlarini oshirish uchun xizmat qiladigan juda kuchli rag'batlantiruvchi omillardan biri - bu soliq kodeksining 360 - moddasiga muvosiq, yagona soliq to'lovini to'lovchilar uchun qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashga ruxsat berishdek imtiyozdir.

Kichik biznes subyekti bu imtiyozdan foydalansa yagona soliq to'lovi summasi budgetga to'lanishi lozim bo'lgan qo'shilgan qiymat solig'i summasiga (ammo yagona soliq to'lovi summasining 50 foizidan ko'p bo'lmanan summaga) kamaytiriladi. Natijada, qo'shilgan qiymat solig'i summasi miqdoriga qarab, yagona soliq to'lovingning yagona soliq to'lovingning 2012 - yil uchun belgilangan stavkasi (6 foiz) ni ikki baravar (3 foiz) gacha pasaytirib hisoblab chiqarishi va budgetga to'lashlari mumkin. Albatta bu - soliq yukini pasaytirish uchun juda katta imkoniyat, chunki kichik biznes subyekti budgetga qancha qo'shilgan qiymat solig'i summasini o'tkazmasin, bu summa uning pirovard moliyaviy natijalariga ta'sir ko'rsatmay, bu mahsulotni sotib oluvchi iste'molchi tomonidan to'lab beriladi, ya'ni qo'shilgan qiymat solig'ini to'lashdan kichik biznes subyekti foya ham, zarar ham ko'rmaydi.

Yuqoridagilardan tashqari kichik biznes subyekti o'zi xomashyo sotib olayotganda to'lagan qo'shilgan qiymat solig'i summasini ham iste'molchi hisobidan tiklab oladi. Bu yerda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchi kichik biznes subyekti budgetga to'lanishi lozim bo'lgan yagona soliq to'lovi summasining yarmisigacha miqdorini o'z ixtiyorida qoldirib yutadi, budgetga esa, shuncha miqdorda yagona soliq to'lovi summasi tushmay qoladi. Boshqacha qilib aytganda - yagona soliq to'lovi to'lovchisi juda katta summani yutadi, davlat esa yutqazmaydi, chunki yo'qotilayotgan yagona soliq to'lovi summasi o'miga shuncha miqdorda qo'shilgan qiymat solig'i summasi budgetga tushadi.

Albatta, bu holni ijtimoiy nuqtai nazardan yaxshi harakat deb hisoblab bo'lmaydi, chunki to'langan qo'shilgan qiymat solig'i summasi mahsulot narxiga kiritilib, pirovard iste'molchi bo'lgan aholi bo'yning tushadi. Ammo hozirgi paytda mamlakatimizda amalda bo'lgan bozor iqtisodiyotining asosiy maqsadi maksimal foya olish talabi shunga olib kelishi tabiiy bir holdir.

**Yagona soliq to'lovini hisoblash va budgetga to'lash tartibi.** Yagona soliq to'lovi soliq to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda soliqqa tortish bazasi va belgilangan soliq stavkasidan kelib chiqib hisoblanadi.

Turli xil soliq stavkasi to'lanadigan faoliyat yurituvchi yagona soliq to'lovi to'lovchi kichik biznes subyektlari har bir faoliyat turi bo'yicha alohida hisob yuritishlari lozim va tegishli soliq stavkalaridan kelib chiqib yagona soliq to'lovini hisoblashlari lozim.

Yagona soliq to'lovining hisob-kitobi to'lovchi kichik biznes subyektlari tomonidan soliq inspeksiyasiga ortib boruvchi yakun bilan yilning har choragida hisobot davridan keying oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot topshiriladigan muddatda taqdim etildi.

O'tgan yil yakunlari bo'yicha faoliyat turi savdo faoliyati va umumiy ovqatlanish bo'lgan kichik biznes subyektlari O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksiga muvofiq hisobot yilining boshidan yagona soliq to'lovini to'lashi shart.

Savdo va umumiy ovqatlanish kichik biznes subyektlari sifatida yangi tashkil etilgan korxonalar yagona soliq to'lovini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan joriy yil tugagunga qadar, 1-oktabrdan keyin to'laydi.

Yagona soliq to'lovi to'lovchilari bu soliqni to'lash muddatini davlat ro'yxatidan o'tkazilgan sanadan boshlab bir yil muddatga kechiktirish huquqiga ega, kechiktirilgan summalar imtiyozli davr tugagandan so'ng 12 oy ichida teng ulushlar bilan to'lanadi.

Hisobot yili tugashi bilan belgilangan xodimlar soni kichik biznes subyekti mezoniga mos kelmaydigan yagona soliq to'lovi to'lovchilari va ilgari soliq to'lovi to'lovchisi bo'lgan xususiylashtirilgan kichik biznes subyektlari tomonidan oxirgi ikki chorak davomida ularning realizatsiya qilgan tovarlari miqdori obyektiv sabablersiz soliq organlari tomonidan belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan mol-mulk va yer solig'i summasining 10 karrasidan kam bo'lgan taqdirda, soliq organlarining ogohlantirishiga asoslanib, davlat soliq organlariga yillik moliyaviy hisobot taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etiladigan yozma bildirish asosida, keyingi hisobot yildan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tadi.

Yagona soliq to'lovi to'lash huquqidан mahrum bo'lganlar o'tgan hisobot yili uchun umumbelgilangan soliqlar bo'yicha hisob-kitoblar asosida yagona soliq to'lovi yuzasidan qayta hisob-kitobni amalga oshiradilar.

Qayta hisob-kitob o'tkazish uchun yagona soliq to'lovini to'lovchilar yil yakunlari boyicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay davlat soliq organlariga quyidagi lar:

- Soliq kodeksida nazarda tutilgan shaklda va tartibda umumbelgilangan soliqlarning har bir turi bo'yicha hisob-kitoblarni;

- O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda hisoblab chiqarilgan umumbelgilangan soliqlar summasi to'g'risidagi ma'lumotnomani taqdim etadilar.

Umumbelgilangan soliqlar summasi hisoblangan yagona soliq to'lovi summasidan oshib ketgan taqdirda oshgan summa budgetga to'lanishi shart, ammo hisoblangan yagona soliq to'lovi summasi umumbelgilangan soliqlar summasidan oshib ketsa, budget bilan qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Yagona soliq to'lovi bo'yicha qayta hisob-kitob o'tkazish tovarlarni sotib oluvchilar bilan tegishli hisob-kitoblarsiz amalga oshiriladi.

Hisob-kitoblar va ma'lumotnoma:

- yil yakunlari bo'yicha yagona soliq to'lovi hisob-kitobini taqdim etish muddatidan kechiktirmay taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llanilmaydi;

- kechiktirib taqdim etilsa, moliyaviy sanksiyalar qo'llaniladi.

Agar kichik biznes subyektlari hisobot yili yakunlari bo'yicha belgilangan shartlarga javob bermay qolsalar, kelgusi yil boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlar to'lashga o'tishlari zarur, belgilangan shartlarga javob bermay qolning hisobot yili tugaganidan keyingi yilning 1-fevralidan kechiktirmay soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibi tanlanganligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan belgilangan shaklda yozma bildirish taqdim etishlari shart. Soliq to'lovchi tomonidan yozma bildirishning belgilangan muddatda taqdim etilmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga berilgan roziligi deb hisoblanadi.

Umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan yagona soliq to'lovi to'lovchilari kamida 12 oydan so'ng yagona soliq to'lovini to'lashga qayta o'tishlari mumkin.

Agar yagona soliq to'lovi to'lovchilari qo'shilgan qiymat solig'i solinadigan aylanma mablag'ni amalga oshirsalar, qo'shilgan qiymat solig'inii ixtiyoriy ravishda to'lashlari va ixtiyoriy ravishda rad etishlari mumkin. O'zbekiston Respublikasi

Soliq kodeksiga muvofiq rad etish faqat navbatdagi yil boshidan amalga oshirilishi mumkin.

Agar mikrofirma va kichik korxonalar asosiy faoliyatlaridan tashqari faqat maxsus soliq rejimida ishlovchi kichik biznes subyektlariga xos faoliyat turlari bilan ham shug'ullansalar, ular bu faoliyat turlari bo'yicha qonunchilik tomonidan shu kategoriya korxonalar uchun ko'zda tutilgandek alohida hisob yuritishlari va soliqlarni, yig'imlarni va davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lab borishlari shart. Masalan, yagona yer solig'i to'lovchisi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar korxona kichik biznes subyekti maqomiga ega bo'lsa, o'z faoliyatining boshqa turlari bo'yicha o'z xohishlariga ko'ra yagona soliq to'lovini yoki barcha soliqlar va majburiy to'lovlarini to'lashlari mumkin.

Yagona soliq to'lovi budgetga to'lovlardan qarzlar hisobi (scheti) bo'yicha hisobga olib boriladi. Belgilangan tartibda hisoblab chiqilgan yagona soliq to'lovi soliqlar va yig'imlarni to'lash uchun foydalanish hisobi (scheti) debeti va budgetga to'lovlardan qarzlarini hisobga olish hisobining kreditida ko'rsatiladi.

To'lab bo'lingan yagona soliq to'lovi budgetga to'lovlardan qarzlarini hisobga olish hisobi (scheti) ning debetida va pul mablag'larini hisobga olish hisobida ko'rsatiladi.

### **Qisqacha xulosa**

Kichik biznes subyektlari yirik korxonalarga nisbatan bir qator afzalliliklarga ega. Shuni hisobga olib, O'zbekiston Respublikasida 2011 - yil-«Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili» deb e'lon qilindi va uning rivojlanishini yanada jadallashtirishga qaratilgan bir qator qo'shimcha imtiyozlari berildi. Berilgan imtiyozlardan ichida eng samaralisi bo'lib ular tomonidan ixtiyoriy ravishda soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini va xususan yagona soliq to'lovini qo'llash imkoniyati hisoblanadi, chunki bu holda soliqqa tortishning umumbelgilangan tartibida to'lanadigan 5 soliq turi va 3 davlatning budjetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga ajratmalar o'miga faqat bitta - yagona soliq to'lovi to'lanadi.

Yagona soliq to'lovini qo'llash hujjatlar aylanishi maksimal darajada qisqaradi, hisobotlar soni qisqaradi va shakli soddalashadi, soliq ma'murchiligi osonlashadi, soliqlarni yig'ib olish jarayoni arzonlashadi, soliq yuki optimallashadi va pirovart natijada kichik biznes subyektlarining samaradorlik darajasi yanada ortadi.

#### **Nazorat va muhokama uchun savollar**

1. Kichik biznesning O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida tutgan o'mni.
2. Kichik biznes subyektlarining asosiy afzalliliklari.
3. Korxona va tashkilotlarga kichik biznes subyekti maqomini berish mezonlari.
4. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibining mohiyati.
5. Yagona soliq to'lovining mohiyati.
6. Yagona soliq to'lovining subyekti, obyekti va stavkalari.
7. Yagona soliq to'lovidan imtiyozlar.
8. Yagona soliq to'lovini hisoblash va budgetga to'lash tartibi.
9. Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibini takomillashtirish yo'llari.

#### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi. - T.: Adolat, 2010. - 400 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 24 - avgustdag'i 4364-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 7 - fevraldag'i 1474 - sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirdorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 30 - dekabrdagi 1675 - sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budgeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.
5. Karimov I.A. 2012 - yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012 - yil 20 - yanvar.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009, -55 b.
7. Муталов А., Муталова Д. Налогообложение малого бизнеса и предпринимательства. – Т.: Иктисадиёт, 2010.-112 с.

#### **WEB saytlari:**

1. <http://www.soliq.uz>. - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti.
3. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
4. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.

## V bob. TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH

*Kalit so'zlar: soliq, soddalashtirilgan soliq, obyekt, baza, imtiyoz, kichik biznes subyektlari, umumbelgilangan tartibi, yagona soliq to'lovi.*

**adbirkorlikning mohiyati va uni soliqqa tortish.** Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkor deganimizda foya olish maqsadida qonunchilik tomonidan ta'qilanganmagan biron-bir faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tushuniladi. Masalan, oila a'zolaridan biri ertalab tandirida non yopib, o'z oila a'zolari bilan issiq non bilan nonushta qilishsa – u tadbirkor bo'lmaydi, chunki bu faoliyatdan foya olmaydi, agar u shu nonni bozorga olib chiqib foya olish maqsadida sotsagina u tadbirkor bo'ladi.

Shaxsiy tadbirkor deganimizda, yuridik shaxsni tashkil etmasdan, mustaqil ravishda, ishlovchilarni yollash huquqisiz, o'z mulki bo'lgan mol-mulkdan foydalanib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tushiniladi. O'zbekiston Respublikasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi va undan daromad oluvchilar belgilangan tartibda soliq to'laydilar.

Tadbirkorlar soliqlarni O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining 58-bobiga muvofiq to'laydilar.

Agar shaxsiy tadbirkor ma'lum muddatga o'z faoliyatini to'xtatsa, to'xtatishdan oldin u tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organga o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risida ariza va arizaga qo'shib davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi o'z guvohnomasini qo'shib topshiradi.

Shaxsiy tadbirkordan o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risida ariza va davlat ro'yxatidan o'tganligi to'g'risidagi guvohnomasini olgan tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organ bu haqida tegishli soliq organiga O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlangan shaklda ma'lumot beradi.

Tegishli soliq organi uchun tadbirkorlarni ro'yxatga oluvchi organidan olingan shaxsiy tadbirkorning o'z faoliyatini vaqtinchalik to'xtatishi to'g'risidagi ma'lumot faoliyatni to'xtatiladigan muddat uchun qat'iy belgilangan soliqni hisoblashni to'xtatishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsiy tadbirkor daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registrida daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olib borishlari shart. Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- chakan savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxsiy tadbirkorning daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish kitobi;
- tovar chiptalari kitobi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri shakli O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi tomonidan tasdiqlanadi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri shaxsiy tadbirkorning arizasiga binoan soliq inspeksiysi tomonidan ro'yxatga olinadi.

Daromadlar va amalga oshirilgan tovar operatsiyalarini hisobga olish registri oxirgi yozuv yozilgan kundan boshlab 5 yil davomida raqamlangan hamda shaxsiy tadbirkorning, tikilgan va tegishli soliq inspeksiyasining muhri bilan muhrlangan holda shaxsiy tadbirkorda saqlanadi.

Jismoniy shaxslar bir martalik deklaratsiya bilan ishlashlari mumkin. Daromad olish maqsadida bir martalik operatsiyalarini bajargan holda jismoniy shaxslar ro'yxatga oluvchi organda ro'yxatdan o'tmasdan turib soliq inspeksiyasiga bir martalik deklaratsiya topshiradilar. Bo'lajak daromadni ko'rsatib yozilgan bunday deklaratsiya operatsiya bajarilmadan oldin soliq inspeksiyasiga topshiriladi. Soliq inspeksiysi bu deklaratsiya asosida tegishli daromad solig'i summasini hisoblab chiqib, shu summani to'lashi uchun fuqaroga to'lov xabarnomasini beradi. Hisoblab berilgan summa budjetga to'langach soliq inspeksiysi fuqaroga deklaratsiyani qaytarib beradi.

Soliq to'lovchi soliq deklaratsiyasini quyidagi soliq inspeksiyasiga topshiradi:

- jismoniy shaxs yashash joyidagiga yoki;
- faoliyat olib borayotgan joyidagiga.

Bir martalik deklaratsiya asosida jismoniy shaxsdan daromad solig'i 9 foiz, 16 foiz va 22 foizlik shkala bo'yicha hisoblanadi. Shu bilan birga daromad solig'i bir martalik deklaratsiya topshirilgan oydagagi stavka bo'yicha hisoblanadi.

Bir martalik deklaratsiya, bu kutilayotgan daromad haqidagi ma'lumotdir. Shuning uchun bir martalik deklaratsiya topshirgan fuqarolar hisobot yildan keyingi yilning 1-apreli gacha soliq inspeksiyasiga o'zlarining yillik yalpi daromadlari haqida deklaratsiya topshirishlari shart.

Agar fuqaro bir martalik faoliyat yuritib uning solig'ini to'lab bo'lgandan keyin tadbirkorlik faoliyatini davom ettirishni xohlasa, u albatta yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi shart.

Soliq to'lovchilar. Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs tomonidan: daromad solig'i va boshqa umumda vilat hamda mahalliy soliqlar va yig'imlar o'miga to'lanadi. Bunda qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar uchun quyidagilarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanib qoladi:

- bojxona to'lovlari;
- yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlari;
- suv resurslaridan tadbirkorlik maqsadlarida foydalanuvchilar uchun suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- aksizosti mahsulotlari ishlab chiqarilganda yoki import qilinganda aksiz solig'i;
- davlatning budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari;
- davlat bojlari;
- alohida tovarlar bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig'im.

Agar shaxsiy tadbirkor soliqqa tortiladigan mol-mulkka va yerga ega bo'lsa, ular jismoniy shaxslar to'laydigan mol-mulk va yer soliqlarini to'lashga majbur. Agar shaxsiy tadbirkorlik faoliyatini ijaraga olingan bino va jihoz, shu jumladan transportda amalga oshirsa, u shu faoliyatini amalga oshirishdan oldin yashash joyidagi soliq inspeksiyasiga ijaraga beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasporti ko'rsatkichlari hamda ijara haqining summasi va muddati haqida ma'lumot berishi lozim.

Shu bilan birga sotish maqsadida tovarlarni import qiluvchi jismoniy shaxslar eksport-import qilish, ulgurji va chakana savdo qilish huquqiga ega bo'lgan yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi tadbirkor sifatida ro'yxatdan o'tishi shart.

Import qilingan tovarlarni sotuvchi jismoniy shaxslar sotish paytida import tovarlarni bojxona chegarasidan o'tish hujjatlarini ko'rsatishi lozim va agar bu hujjatlar bo'limasa import qilingan tovarlar belgilangan tartibda olib qo'yiladi.

Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilarga soliq solishning boshqa tartibini tanlash huquqi tatbiq etilmaydi va u yotganma ishchi ishlatishtga haqi yo'q. Ammo erxotinning umumiy mulkiga asoslangan oilaviy tadbirkorlik shaklida, oddiy o'rtoqlik shartnomasi asosida faoliyat yuritishlari mumkin. Masalan, ikkita yoki undan ko'proq shaxsiy tadbirkor oddiy o'rtoqlik shartnomasi asosida yuridik shaxsni tashkil etmasdan faoliyat yuritishlari mumkin.

**Soliqqa tortish obyekti.** Mol-mulk subyektlarining qonun bilan man etilmagan, o'z mulkiy javobgarligi asosida tavakkalchilik bilan amalga oshiriladigan har qanday iqtisodiy faoliyatdan oladigan daromadidan to'laydigan soliqqa tortish obyekti bo'lib quyidagilar xizmat qiladi:

- kustar-hunarmandchilik va xalq amaliy san'at sohasi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish, ijtimoiy-madaniy va boshqa sohalarda qonun bilan man etilmagan, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdan olingan daromadlar;

- fuqarolarning qishloq xo'jaligi mahsulotiga kirmaydigan yovvoyi holda o'suvchi mevalar, dorivor o'tlar, zamburug'lar, qushlar va qafasda saqlanadigan hayvon mahsulotlari va boshqalarni sotishdan olingan daromadlar;

- fuqarolarning shaxsiy yordamchi qishloq xo'jaligidan olgan nooziq-ovqat mahsulotlarini sotishdan olingan daromadlar;

- inshootlarni, xonardonlarni, xonalarni, garajlarni, avtomashinalarni, radio va teleapparaturlarni, videokassetalarini, musiqa asboblarini, to'y liboslarini, mebellarni va boshqa ko'chmas mulknari qarzga va ijaraga berishidan olingan daromadlar;

- alohida shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan tadbirkorlikdan olingan daromadlar;

- bir guruuh fuqarolar birgalikda amalga oshiradigan jamoaviy tadbirkorlikdan olingan daromadlar.

Hujjatli tasdiqlanadigan xarajatlar tarkibiga quyidagilar kiritiladi:

- moddiy xarajatlar;
- asosiy ishlab chiqarish vositalarini to'la tiklashga ajratiladigan amortizatsiya to'lovleri;
- ijara to'lovleri;

- davlat ijtimoiy sug'urtasiga to'lovlari;
- banklarning qisqa muddatli kreditlar uchun to'lanadigan foizlar;
- asosiy ishlab chiqarish vositalarini barcha turdag'i ta'mirlash uchun qilingan xarajatlar.

Agar fuqarolar qilingan xarajatlar miqdori va tarkibini hujjatlar bilan tasdiqlab berolmasa, soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshirish hujjatlarida keltirilgan xarajatlar asosida hisobga olinadi yoki xuddi shu faoliyat bilan shug'ullanuvchi boshqa fuqarolar ko'rsatkichlaridan foydalaniлади.

Bilyardxonalar, bolalar o'yin avtomatlari uchun soliqqa tortish obyekti bo'lib jihozlangan o'rinnar soni xizmat qiladi.

**Soliq stavkalari va soliqdan imtiozlar.** Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi yakka tadbirkorlar qat'iy belgilangan stavkalar asosida soliq to'laydilar (14-jadval).

14-jadval

**Yakka tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkalarini,  
eng kam oylik ish haqiga nisbatan karralarda<sup>28</sup>**

N	Faoliyat turi	Toshkent shahri	Viloyat shaharlari	Tumanlar, Qishloqlar
<b>1.</b>	<b>Chakana savdo:</b>			
	Oziq-ovqat mahsulotlari bilan	9	6	3
	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan dehqon bozoridagi savdo rastalarida	5	4	2
	Nooziq-ovqat mahsulotlari bilan	10	6,5	3
	Oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlari bilan	10	6,5	3
<b>2.</b>	<b>Maishiy xizmatlar (3-banddagidan tashqari)</b>	3,5	1,5	0,5
<b>3.</b>	<b>Sartaroshxona, manikyur, pedikyur, kosmetika va boshqa xizmatlar</b>	4	2	1
<b>4.</b>	<b>O'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish</b>	2	1,5	1
<b>5.</b>	<b>Boshqa turdag'i faoliyat(mulkni ijaraga berishdan tashqari)</b>	2	1,5	1
<b>6.</b>	<b>Yuk mashinalarida xizmat ko'rsatish:</b>			

<sup>28</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognози va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

3-tonnagacha yuk ko'taruvchi	2	2	2
8-tonnagacha yuk ko'taruvchi	3	3	3
8-tonnadan ortiq yuk ko'taruvchi	4	4	4

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, bir xil faoliyat yurituvchi tadbirkorlar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari joylashgan joyiga qarab bir-biridan farq qilar ekan. Masalan, Toshkentda joylashgan sartarosh har oyda 6,5 minimal oylikka teng soliq to'lasa, qishloqda joylashgan sartarosh har oyda 2,0 minimal oylikka teng soliq to'laydi. Qat'iy belgilangan soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib, qat'iy belgilangan soliq stavkalari oshirilishi mumkin. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning daromadlariga qat'iy belgilangan soliq stavkalari bir oylik eng kam ish haqiga nisbatan karralarda belgilangan bo'lib, joylashgan joylariga qarab va chakana savdo, xizmat ko'ratish, o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish, avtovoztransport vositalarida xizmat ko'rsatish va ularni ijara berish hamda tadbirkorlikning boshqa turlari uchun soliq stavkalari belgilangan.

Tadbirkorlik faoliyatini o'zi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joydan boshqa joyda amalga oshirayotgan jismoniy shaxs soliqni stavkalardagi muşbat farqni hisobga olib to'laydi. Bunda tadbirkorlik faoliyatida muşbat farq jismoniy shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan joyda undiriladi.

Xususiy tadbirkorlar uy xo'jaligida yetishtirilgan uy hayvonlarini tirik va so'yilgan holda sotish, chorvadorlik, asalarichilik, o'simlikshunoslik, dekrativ bog'dorchilik mahsulotlarini tabiiy va qayta ishlangan holda sotish uchun tegishli barcha zaruri hujjatlari bo'lganda qat'iy belgilangan soliqni to'lashdan ozod etiladi.

Jismoniy shaxslarning mulkni ijara berishdan olgan daromadidan jismoniy shaxslarning daromadidan olinadigan soliq olinadi.

**Soliqlarni hisoblash va budjetga to'lash tartibi.** Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun ularning tadbirkorlik faoliyatini soliqqa tortishning aniq tartibi va topshirish muddatlari belgilab berilgan. Masalan, tayinli ish joyi bo'Imagan tadbirkorlik faoliyatidan yoki boshqa yo'llar bilan daromad oluvchi jismoniy shaxslar soliq organlari tomonidan shaxslar ularning amalda olgan yillik daromadlari to'g'risidagi deklaratsiya, soliq organlari tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlar hujjatlari va tekshiruv natijalari asosida soliqqa tortiladilar.

Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun deklaratsiya tuzishning va soliq organlariga topshirishning quyidagi tartibi belgilangan:

- fuqarolar o'tgan oydagisi amalda olgan daromadlari va yilning qolgan davrida olishni mo'ljalayotgan daromadlari to'g'risida deklaratsiyani o'zlarini yashab turgan joydagisi soliq inspeksiyasiga daromad olgan oyida keyingi oyning 5-sanasidan kechiktirmay topshiradilar. Agar, yil oxirigacha daromad manbai yo'qolib qolsa, tadbirkor daromad manbai yo'qolgandan boshlab 5 kun ichida deklaratsiya topshiradi. Agar, yil oxirigacha daromad manbai yo'qolmasa, tadbirkor yil davomida

amalda olgan daromadi to'g'risida deklaratsiyani kelasi yilning 15-yanvarigacha topshiradi.

Xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq to'lashning quyidagi tartibi va sanalari belgilangan:

- qat'iy belgilangan soliq tadbirkorlik faoliyatining turiga va faoliyat amalga oshiriladigan joyiga qarab belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanadi;

- bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanuvchi tadbirkor har bir faoliyat turi uchun belgilangan stavka bo'yicha alohida qat'iy belgilangan soliq to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliqni hisoblash qat'iy belgilangan soliqchi hisobga olingan joydagi soliq inspeksiysi tomonidan amalga oshiriladi.

Qat'iy belgilangan soliqni tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan har oyda tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joyidagi soliq inspeksiyasiga oyning 25-sanasidan kechiktirmay to'lanadi.

Agar tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan joydagi qat'iy belgilangan soliq stavkasi, tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joyidagi soliq stavkasidan farq qilsa, soliq tadbirkor ro'yxatdan o'tgan joyidagi soliq inspeksiyasiga baland bo'lgan joydagi stavka bo'yicha to'lanadi. Masalan, tadbirkor Samarqand shahrida ro'yxatdan o'tgan, tadbirkorlik faoliyati bilan Toshkent shahrida shug'ullanadi. Samarqand shahrida oylik qat'iy belgilangan soliq stavkasi 3,5 eng kam ish haqiga, Toshkent shahrida esa 5 eng kam ish haqiga teng. Agar shu oyda u 1000000 so'm daromad olgan bo'lsa, u Samarqand shahri stavkasi bo'yicha ( $1000000 * 3,5$ ) :  $100 = 35000$  so'm, Toshkent shahri stavkasi bo'yicha ( $1000000 * 5$ ) :  $100 = 50000$  so'm to'lashi lozim.

Shunday qilib, tadbirkor Samarqand shahri soliq inspeksiyasiga 50000 so'm qat'iy belgilangan soliq to'lashi lozim.

O'z faoliyatini endi boshlayotgan tadbirkor qat'iy belgilangan soliq hisobini soliq inspeksiyasiga o'z faoliyatini boshlashdan oldin topshiradi, shuningdek soliqni ham o'z faoliyatini boshlashdan oldin to'laydi.

### **Qisqacha xulosa**

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lovchilaridirlar.

Qat'iy belgilangan soliqlar barcha umum davlat va mahalliy soliqlar va yig'implar o'miga to'lanadi.

Qat'iy belgilangan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi va indeksatsiyalanadi va Qoraqalpog'ston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimlari tomonidan mahalliy shart-sharoitlarni hisobga olib, qat'iy belgilangan soliq stavkalari oshirilishi mumkin.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar soliq organlari talablari bo'yicha qat'iy belgilangan soliq bo'yicha qonunchilikda belgilangan tartibda va shakllarda hisobotlar, hisob-kitoblar va daromadlari boyicha deklaratsiyalar topshiradilar.

---

### **Nazorat va muhokama uchun savollar:**

---

1. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qanday soliq to'laydilar?
  2. Qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar.
  3. Qat'iy belgilangan soliqning soliqqa tortish obyekti.
  4. Qat'iy belgilangan soliqdan imtiyozlar.
  5. Qat'iy belgilangan soliqni to'lash tartibi.
  6. Daromadlardan deklaratsiya topshirish tartibi.
7. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarni soliqqa tortishni takomillashtirish.
8. Yuridik shaxsni tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar daromad solig'i to'laydilarmi?

### **Tavsiya etiladigan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, - T.: Adolat, 2010. - 400 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 24 - avgustdagagi 4364-sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 7 - fevraldagagi 1474 - sonli "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 - yil 30 – dekabrdagi 1675 - sonli "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari proqnozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.
5. Karimov I. A. 2012 - yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012 - yil 20 – yanvar.
6. Karimov I.A. Jahon moliyaviy - iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. – T.: O'zbekiston, 2009, -55 b.
7. Муталов А., Муталова Д. Налогообложение малого бизнеса и предпринимательства. – Т.: Иктисадиёт, 2010.-112 с.

### **WEB saytlari:**

1. <http://www.soliq.uz>. - O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi sayti.
  2. <http://www.gov.uz> - O'zbekiston Respublikasi hukumati sayti.
  3. <http://www.mf.uz> - O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi sayti.
  4. <http://www.stat.uz> - O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi sayti.
-

**"KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI  
SOLIQQA TORTISH" FANINI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN  
ILG'OR PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA - FAOLIYAT O'YINI**

**O'yinga qatnashuvchilar:**

Boshlovchi - o'qituvchi, talabalar to'rtga bo'linib, to'rtta korxonaga buxgalteriya xodimlari sifatida biriktirib chiqiladi.

Shundan so'ng o'yinning berilgan ko'rsatkichlarini har bir korxona bo'yicha e'lon qiladi va aniqlanishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlarni topishni so'raydi.

Barcha masalalar hal bo'lib o'yin tugagach, har bir korxona bo'yicha natijalar soliq xodimlari tomonidan tekshiriladi va xatolar bo'lsa tuzatilib, har bir korxona bo'yicha muhokama qilinadi. Muhokamada har bir korxona bo'yicha ishlagan buxgalteriya xodimlariga savollar beriladi. Ular o'zlarining har bir harakatlarni asoslab berishlari lozim.

Barcha korxonalar bo'yicha muhokamalar tugagach, ishlarga baho beriladi.

O'yin 6 soat davom etadi.

Ushbu tadbirkorlik o'yini korxonalar amaliyotida amalga oshiriladigan harakatlarni o'z ichiga oladi va ularni to'g'ri amalga oshirishni o'rgatadi.

**Berilgan:**

**1. Ishlovchilar soni.**

**A korxona** – 1200 kishi, ulardan 300 tasi nogironlar, xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqaradi.

**B korxona** – 500 kishi, ulardan 400 tasi nogironlar, mineral o'g'it ishlab chiqaradi.

**C korxona** – qo'shma korxona 300 kishi, chet el sarmoyasi ulushi 51%, Nizom fondi – 15 mln. Dollar, Toshkent shahrida joylashgan, 2008-yilda ishga tushgan va traktor zaxira qismi ishlab chiqaradi.

**D korxona** – 50 kishi, non ishlab chiqaradi.

**2. O'rtacha oylik ish haqi.**

A – 449000, B – 443000, C – 455000, D – 447000 so'm.

**3. Bank xizmati uchun foizlar.**

	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
O'tkazilgan pul uchun	0,4	0,3	0,35	0,45
Kassa xizmati uchun	1,6	1,5	1,53	1,01

**4. 1-dekabr holatiga to'lanmay qolgan mol-mulk solig'i miqdori, mln. so'm.**

	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
	4,3	2,7	1,9	0

**5. 1-dekabr holatiga to'lanmay qolgan lizing to'lovlari miqdori, mln. so'm.**

	<b>A</b>	<b>B</b>	<b>C</b>	<b>D</b>
	20	13	0	1,5

**6. Hisob raqamidagi oy boshidagi qoldiq, mln. so'm.**

A	B	C	D
25	18	21	9

**7. Hisob raqamiga tushgan pul, mln. so'm.**

	A	B	C	D
7 - dekabrda	83	79	48	77
13 - dekabrda	129	111	73	51
19 - dekabrda	41	51	40	20
29 - dekabrda	91	80	66	31

**8. Sotilgan mol, mln. so'm.**

	A	B	C	D
7 - dekabrda	83	79	48	77
13 - dekabrda	129	111	73	51
19 - dekabrda	41	51	40	20
29 - dekabrda	91	80	66	31

**9. Xomashyoga o'tkazilgan pul, mln. so'm.**

	A	B	C	D
8 - dekabrda	35	20	17	5
14 - dekabrda	29	71	70	51
17 - dekabrda	61	42	40	9
27 - dekabrda	45	41	27	11

**10. Xizmat safarlariga xarajatlar, mln. so'm.**

a. Sutkaluk to'lov miqdori, mln. so'm.

A	B	C	D
35	20	17	5

b. Xizmat safari miqdori, odam\*kun.

A	B	C	D
43	50	45	41

**11. Boshqa xarajatlar, ming so'm.**

a. Kanselyariya	A	B	C	D
	40	20	5	3
b. Boshqa xarajatlar	12	7	4	2

**Aniqlash, asoslab berish va hisoblash lozim:**

1. Har bir korxona bo'yicha to'lanaqidigan soliq turlari.
2. Soliqqa qayta tortiladigan to'lovlar (xarajatlar).
3. Soliqlardan imtiyozlar.
4. Soliqqa tortish bazasi.
5. Soliq stavkasi.

6. Har bir soliq turi bo'yicha budjetga to'lanadigan pul miqdori.
7. Soliqlar va to'lovlarning umumiy miqdori.
8. Oylik moliyaviy natijalar:
  - a. Foyda.
  - b. Zarar.
9. Xulosa.

### **ESLATMA**

Korxonalar to'laydigan soliq turlari, ularning ixtisoslashuviga, miqyosiga, nizom jamg'armasi miqdori va tarkibiga korxona bo'yicha to'lanadigan soliq turlari, soliqlardan beriladigan imtiyozlar kabi ko'rsatkichlarga bog'liq: - korxonalar miqyosiga qarab korxonalar umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibiga kiritilishi mumkin;

- ishlovchilar tarkibiga qarab korxonalar barcha soliq turlarini to'lashi mumkin, ayrim soliq turlaridan yoki barcha soliqlardan ozod etilishi mumkin. Masalan, ayrim korxonalarda ishlovchilarning yarmi yoki undan ko'p qismini nogironlar tashkil etsa, soliqlardan ozod etilishi mumkin;

- Nizom jamg'armasining tarkibiga qarab korxonalar soliqlardan to'la yoki qisman, doimiy yoki vaqtinchalik ozod etilishi mumkin.

Yuqoridagilardan tashqari korxonalarning ayrim xarajat turlari qayta tortilishi mumkin. Masalan, xizmat safari xarajatlari.

## GLOSSARY

**Kichik biznes subyekti** – xo'jalik yurituvchi yuridik shaxs, boshqa xo'jalik yurituvchi yuridik shaxslardan faqat miqyosi (razmeri) bilan farq qiladi.

**Kichik biznes** - kichik biznes subyektlarining umumlashtirilgan nomi.

**Tadbirkor** - foyda olish maqsadida qonunchilik tomonidan ta'qilganmagan biron-bir faoliyat bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxs.

**Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi** – soliqqa tortishning ayrim toifadagi soliq to'lovchilar uchun belgilanadigan hamda ayrim turdag'i soliqlarni hisoblab chiqarish va to'lashning, shuningdek, ular yuzasidan soliq hisobotini taqdim etishning maxsus qoidalar qo'llanilishini nazarda tutuvchi alohida tartibi.

**Asosiy faoliyat turi** - yuridik shaxslarning hisobot davri yakunlari bo'yicha umumiyl realizatsiya qilish hajmidagi tushum ulushi ustunlik qiladigan faoliyati.

**Dividendlar** – aksiyalar bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan daromad; yuridik shaxs tomonidan uning muassislar o'rtaida taqsimlanadigan sof foydaning va o'tgan yillardagi taqsimlanmagan foydaning bir qismi.

**Foizlar** – har qanday turdag'i qarz talablaridan olingan daromad, shu jumladan obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlar, depozit qo'yilmalar va boshqa qarz majburiyatlaridan olingan daromad.

**Ijara (lizing) to'lovi** – ijarachi (lizing oluvchi) tuzilgan ijara (lizing) shartnomasi asosida ijaraga beruvchi (lizing beruvchi) ga to'laydigan summa.

**Mol-mulk** – egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish obyektlari bo'la oladigan moddiy obyektlar, shu jumladan pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar, ulushlar hamda nomoddiy obyektlar.

**Oila a'zolari** – er (xotin), ota-onalar yoki farzandlikka oluvchilar va bo'lalar.

**Sof tushum** - tovarlar (ishlar, xizmatlar) narxiда hisobga olinadigan qo'shilgan qiymat solig'ini hamda aksiya solig'i summalarini kiritmagan holda tovarlar (ishlar, xizmatlar) ning realizatsiya qilishdan olingan tushum.

**Sof foyda** – soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar to'langandan keyin kichik biznes subyektlari ixtiyorida qoladigan foyda.

**Tannarx** - mahsulot ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatishda foydalanadigan moddiy resurslarning, asosiy fondlarning, mehnat resurslarining, shuningdek, tovarlar ishlab chiqarish, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish jarayonining amalga oshirish uchun zarur bo'lgan boshqa turdag'i xarajatlarning qiymat bahosi.

**To'lov manbai** - soliq to'lovchiga to'lovlarni amalga oshiruvchi yuridik shaxs.

**O'zbekiston Respublikasi soliq to'lovchilarining yagona reestri** – soliq to'lovchilarga davlat ma'lumotlar bazasi tizimi.

**Tovar aylanmasi** – muayyan davr ichida savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida amalga oshirish chog'ida tovarlarni sotishdan olingan (olinishi lozim bo'lgan), pulda ifodalangan mablag'.

**Tovarlarni eksport qilish** – O'zbekiston Respublikasining bojxona hududidan tovarlari agar qonun hujjalarda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa qayta olib kirish majburiyatiz olib chiqish.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

### **I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi - T.: O'zbekiston , 2010.- 40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. Rasmiy nashr. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, - T.: Adolat, 2010. - 400 b.
3. O'zbekiston Respublikasining " Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1997. - 23 b.
4. O'zbekiston Respublikasining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni tartibga solish to'g'risida"gi Qonuni. -T.: O'zbekiston, 1995. -19 b.

### **II. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

#### **farmonlari va qarorlari**

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 30-dekabrdagi 1675-sloni "O'zbekiston Respublikasining 2012-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 24-avgustdagı 4364-sloni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun maksimal ishchi muhitini shakllantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011-yil 7-fevraldagi 1474-sloni "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" davlat dasturi to'g'risida"gi Qarori.

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010- yil 5- maydagı 4216- sonli "O'zbekiston Respublikasida notarial institutini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori.

9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 24-dekabrdagi 1449-sloni "O'zbekiston Respublikasining 2011-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 22-dekabrdagi 1245- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2010-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 28-yanvardagi 1050- sonli "Mamlakatimizda ishlab chiqariladigan nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 27-yanvardagi 1048- sonli "Tayyor mahsulotlar, kompleklash buyumlari va materiallarini sanoat kooperatsiyasi asosida ishlab chiqarishni mahalliylashtirishning 2009-yilgi dasturi to'g'risida"gi Qarori.

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 26-yanvardagi 1047- sonli "Oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozomi to'ldirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi Qarori.

14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008-yil 29-dekabrdagi 1024- sonli "O'zbekiston Respublikasining 2009-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 12-dekabrdagi 744-sloni "O'zbekiston Respublikasining 2008-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari

prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006-yil 18-dekabrdagi 532-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2007-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi Qarori.

17. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 20-iyundagi "Mikrofirmalar va kichik korxonalarни rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi "Xususiy tadbirkorlik, kichik biznesni rivojlantirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

19. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005-yil 11-apreldagi "Chet el xususiy investitsiyalarini to'g'ridan-to'g'ri jalb qilishni rag'batlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni.

### **III. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va O'zbekiston Respublikasi vazirliklarining huquqiy-me'yoriy hujjatlari**

20. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 20-avgustdagagi 34-sonli "To'qimachilik sanoati korxonalarini yanada rivojlantirish va modernizatsiyalash va 2009-2011-yillarda mahalliy nooziq-ovqat iste'mol tovarlar ishlab chiqarishni kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori.

21. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xaratjatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Qarori.

22. Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xaratjatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida nizom. -T.: O'zbekiston, 1999.

### **IV. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

23. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning O'zbekiston Respublikasining 20 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan tabrik so'zi. //Xalq so'zi, 2011-yil 1-sentabr.

24. Karimov I. A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. //Xalq so'zi, 2012-yil 20-yanvar.

25. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'llini izchil davom ettirish - taraqqiyotimizning muhim omilidir. //Xalq so'zi, 2010-yil 8-dekabr.

26. Karimov I. A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. //Xalq so'zi, 2011-yil 22-yanvar.

27. Karimov I.A. Jahan moliyaviy- iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. - T.: O'zbekiston, 2009, -15 b.

28. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va yangilashni izchil davom ettirish – davr talabi. //Xalq so'zi, 2009-yil 14-fevral soni.

29. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 2009, -15 b.

30. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafoiatlari. - T.: O'zbekiston, 1997, -326 b.

31. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - T.:

O'zbekiston, 1995, -269 b.

#### V. Darsliklar va o'quv qo'llanmalar

32. Александров И.М. Налоги и налогообложение: Учебник. – 3-е изд., перераб и доп. –М.: Изд-ко-торговая корпорация “Дашков и К”, 2009, – 314 с.
33. Vahobov A.V., Jo'rayev A.S. Soliqlar va soliqqa tortish. - Т.: Sharq, 2009, - 448 b.
34. Jo'rayev A. S. Toshmurodova B., Toshmatov Sh .A. Soliqlar va soliqqa tortish. –Т.: «NORMA», 2009, -184 b.
35. Качур О.В. Налоги и налогообложение. Учебник. – М.: КНОРУС, 2009, -360 с.
36. Кочетков А. И. Самоучитель по исчислению налогов. Учебное пособие. - М.: ИПАК, 2007, - 368 с.
37. Кочергов Д.С., Устинова Е.Е. Упрощенная система налогообложения - М.: Омега, 2006, -287 с.
38. Косолапов А.И. Налоги и налогообложение. Учебное пособие. – М.: Дашков и К, 2005, -872 с.
39. Миляков Н.В. Налоги и налогообложение. Учебник. –М.: Инфра, 2008, -520 с.
40. Муталов А., Муталова Д. Налогообложение малого бизнеса и предпринимательства. – Т.: Иктисодиёт, 2010, -112 с.
41. Налоги и налогообложение. Учебник под ред. М.В.Романовского, О.В.Брублевской – СПб.: Питер, 2009, -528 с.
42. Налоги и налогообложение. Учебник под редакцией профессора И. А. Майбурова. – М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2010, -559 с.
43. Налоги и налогообложение. Учебник под ред. Д. Г. Черника. – М.: ЮНИТИ - ДАНА, 2008, -311 с.
44. Пархачева М.А. Упрощенная система налогообложения. - М.: Эксмо, 2007, -672 с.
45. Tuxliyev B., Yusupov O.A., Agzamov A.T., Tuxsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. – Т.: TDIU, 2007, -316 b.
46. Н.Н. Тютюрюков. Налоговые системы зарубежных стран. - М.: Дашков и К”, 2010, - 176 с.
47. Упрощенная система налогообложения. – М.: Бератор - Паблишинг, 2007, -336 с.
48. Ютина Г.Ф. Налоги и налогообложение. Учебник. – 5-е изд., перераб. и доп. – М.: ИНФРА-М, 2006. – 509 с.

#### VI. Internet saytlari

49. <http://www.nalog.ru>,
50. <http://www.mf.uz>,
51. <http://www.budget rf.ru>
52. <http://www.soliq.uz>.

## MUNDARIJA

<b>KIRISH</b>	4
<b>I bob. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH» FANINING PREDMETI VA VAZIFALARI</b>	5
1.1. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining predmeti va vazifalari	5
1.2. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanini o'rganishning zarurligi va boshqa fanlar bilan munosabati	6
1.3. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining asosi va manbalari	6
1.4. "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa tortish" fanining soliq sohasidagi mutaxassislarni tayyorlashda tutgan o'mi	7
<b>II bob. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOLIQ SIYOSATI VA SOLIQ TIZIMI</b>	9
2.1. O'zbekiston Respublikasi soliq siyosati	9
2.2. Soliq siyosatining strategiyasi va taktikasi	10
2.3. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi va uning tarkibi	11
2.4. Soliq elementlari	12
2.5. Soliq mexanizmi va soliq imtiyozlari	13
Qisqacha xulosa	14
Nazorat va muhokama uchun savollar	15
Nazorat va muhokama uchun savollar	15
<b>III bob. O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI VA UNDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING TUTGAN O'RNI</b>	17
3.1. O'zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishi va unda kichik biznes va tadbirkorlikning roli	17
3.2. Kichik biznesning mohiyati va afzalliklari	18
3.3. Kichik biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish	23
Qisqacha xulosa	25
Nazorat va muhokama uchun savollar	25
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	25
<b>IV bob. KICHIK BIZNESNI SOLIQQA TORTISH</b>	27
4.1. Kichik biznesni umumbelgilangan tartibda soliqqa tortish	30
4.1.1. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan foyda solig'i	31
4.1.2. Qo'shilgan qiymat solig'i	36
4.1.3. Aksiz solig'i	38
4.1.4. Yer qa'ridan foydalanuvchilar uchun soliqlar va maxsus to'lovlar	41
4.1.5. Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	46
4.2. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan mahalliy soliqlar va yig'imlar	48
4.2.1. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan mol-mulk solig'i	49
4.2.2. Kichik biznes subyektlaridan olinadigan yer solig'i	51

4.2.3. Alohida tovarlar(ishlar,xizmatlar) bilan chakana savdo qilish huquqi uchun yig`im	53
4.3. Kichik biznesni soliqqa tortishning soddalashtirilgan tartibi	53
Qisqacha xulosa	64
Nazorat va muhokama uchun savollar	64
Tavsiya etilayotgan adabiyotlar	65
V bob. <b>TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH</b>	66
Qisqacha xulosa	71
Nazorat va muhokama uchun savollar	71
Tavsiya etiladigan adabiyotlar	72
<b>“KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH” FANINI O’QITISHDA FOYDALANILADIGAN ILG’OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYA - FAOLIYAT O’YINI</b>	73
<b>GLOSSARIY</b>	75
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR</b>	77

---

**Abduazim Mutalov,  
Dilorom Mahamadjonovna Mutalova**

## **KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI SOLIQQA TORTISH**

O'quv qo'llanma

"*Iqtisodiyot*" - 2012.

*Muharrir  
To'rayeva F.B.*

*Kompyuterda sahifalovchi  
Mirhidoyatova D.M.*

Litsenziya AI № 089 15.03. 2007 y. Terishga berildi 07.05.2012. Bosishga ruxsat etildi 05.07.2012. Qog'oz bichimi 60x80 1/16. Times garniturasi. Ofset muhri. Ofset qog'izi. Shartli bosma tabog'i 5.5. Hisob nashr varag'I 15,0.

Адади 50 нусха. 43-сонли буюртма. Баҳоси келишилган  
Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining bosmaxonasida bosildi. 100003.  
Toshkent. O'zbekiston shoh ko'chasi, 49-uy.

**65(07) Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni soliqqa  
tortish; O'quv qo'llanma. /Mutalov A., Mutalova  
D.M. - T.: Йқтисодиёт, 2012. 84 b.**

1. Mutalov A.
2. Mutalova D.M.

**ISBN 978-9943-4020- 9-6**

**UDK 336.2(07)  
BBK 65(07)**

.

